

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika va jismomiy madaniyat fakulteti 5141600-
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi
bitiruvchisi

Mamatova Sohibaning

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha
mashqlardan foydalanish uslublari”

mavzusida yozgan

Bitiruv malakaviy ishi

Namangan 2012

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA QO'SHIMCHA MASHQLARDAN FOYDALANISH USLUBLARI

REJA:

Kirish

1. Bob. Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid mashqlar bajarish orqali yangi bilimni mustahkamlash.

- 1.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni o'rgatib borishning maqsad va vazifalari;
- 1.2. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida o'quvchilarga mavzuga oid og'zaki va yozma mashqlar bajartirib borishning ahamiyati;

2. Bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari

- 2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari;
- 2.2. 2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarida bajariladigan qo'shimcha mashqlar;

Tajriba – sinov ishlari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotida ko'plab o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta'lim sohasida katta islohotlar amalga oshirildi. O'rta umumta'lim maktablari to'qqiz yillik tizimga o'tkazilib, o'quvchilar to'qqizinchi sinifni tugatganlaridan so'ng kasb-hunar kollejlari yoki akademik litseylarda o'qishni davom ettirishadigan bo'ldi. Shu bois Respublikamizda ko'plab akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari qurilib ishga tushirildi. O'zbekiston kelajagi bo'lmish yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. “Umumta'lim dasturlarini maktabgacha tarbiya, boshlang'ich umumta'lim va maktabdan tashqari ta'lim tarzida tuzsak, maqsadga muvofiq bo'ladi,”-degan edi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining “Barkamol avlod orzusi” nomli kitobida.¹

Davlatimiz tomonidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. “Davlat ta'lim standartlari” joriy etildi. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va o'rta umumta'lim maktablari kapital tamirdan chiqarilib, o'quv-laboratoriya jihozlari va zamonaviy asbob-uskunalar, kompyuterlar bilan ta'minlandi.

“Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi,”-deydi prezidentimiz o'sha “Barkamol avlod orzusi” nomli kitobida.²

Shu bois hozirgi kunda yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilanib, muayyan ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz va hukumatimizning yoshlarga nisbatan berilayotgan bunday g'amxo'rliklariga ular o'zlarining “a'lo” va “yaxshi” baholarga oqishlari bilan javob berishlari lozim.

“Men Abdulla Avloniynig ”Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun

1. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 1999- yil. 24-bet .

2. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” “Sharq” nashriyoti. Toshkent. 1999- yil. 81-bet. qanchalar muhim va dolzarb bo’lgan bo’lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko’ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirmasdan turib ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafakkurni o’zgartirmasdan turib esa biz ko’zlagan oily maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi,”-degan edi prezidentimiz I.A.Karimov o’zining “Barkamol avlod orzusi” nomli kitobida.¹

Pedagog kadrlar, yetuk mutahassislar tayyorlash, o’qituvchilar malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Darslarni yuqori saviyada o’tkazish, darsga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yangi-yangi dars uslublarini ishlab chiqish, noan’anaviy dars uslublaridan foydalanish, o’qituvchilarning o’z ustlarida ishlab borishlari, zamon bilan hamnafas yashash, ishlash oily ta’lim va o’rta-maxsus kasb-hunar kollejlari hamda o’rta umumta’lim maktablari o’qituvchilari oldida turgan eng muhim vazifaga aylandi.

2010- yilda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni qurish, rekonstruktsiya qilish va jihozlash, shuningdek, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo’yicha dasturlarni amalga oshirish yakuniga yetkazildi. Umuman olganda, 2005-2010-yillar davomida 7 ming 800 dan ortiq umuta’lim muassasasi, qariyb 1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylar barpo etildi. Faqat 2010-yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod kompyuter texnikasi va multimedia uskunasi o’rnatildi.¹

“Mening eng katta umidim va ishonchim – mana shu muhtasham maydonga chiroy berib o’tirgan siz aziz farzandlarimda, sizning timsolingizda bugun quvvatga to’lib, hech kimdan kam bo’lmayman, deb zamonaviy bilim va tajribalarni egallashga bel bog’lagan, tobora hal qiluvchi kuch bo’lib hayotga kirib kelayotgan yosh avlodda, desam, hech qanday xato bo’lmaydi. Bunday avlodni

1.Karimov I.A.. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 39-40-betlar
2.Karimov I.A.“Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi,” Xalq so’zi, Toshkent, 2011-yil, 22-yanvar 16-son, 2- bet.

hech qachon yengib bo'lmaydi"¹

Davlatimiz va jamiyatimizning bugungi kuni, ayniqsa, kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldimizga qo'yar ekanmiz, avvalombor, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan, aynan shu qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr degan hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan edik.

Albatta, hozirgi kunda taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanib borishimizda, ezgu niyatlarimizni ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan muhim bir mezon borki, u ham bo'lsa, inson kapitali, ya'ni inson omili, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan yoshlarimizdir.²

Darhaqiqat, muhtaram prezidentimiz kelajagimiz bo'lmish yoshlarga katta umid bilan qaraydi, kelajakda O'zbekiston dovrug'ini yanada oshirishlariga ishonadi. Davlatimiz va hukumatimizning yoshlarga ko'rsatayotgan bunday g'amxo'rliklari, albatta, muhtaram prezidentimizning rahnamoligida va u kishining tashabbuslari asosida amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tamonidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Ma'lumki, Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi,

1.Karimov I.A. “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi” “O'zbekiston ovozi”., 2010-yil.,1-sentabr, 105-son., 1-bet.

2. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr, 3-bet.

hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va irodaviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish asoslari.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olindi:

- “Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari.;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim tizimi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida” 1998- yil 5- yanvardagi 5-son hamda “O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida” 1998- yil 13- maydagi 203-son qarorlari;
- Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi prinsiplarga tayangan holda ishlab chiqiladi.
- Davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- O'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;
- Umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- Umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- Ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- Umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalariga tayanish;
- Pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining o'quv rejasi – Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga etkazib, ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir soatda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi:

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari"ga bag'ishlangan. Ushbu mavzuga oid nomzodlik va doktorlik ishlari tayyorlangan. Biroq mustahkam bilim olishda, ona tili grammatikasini mukammal egallashda qo'shimcha mashqlardan foydalanib borishining ahamiyati beqiyosligini hisobga olib, biz bugun o'z bitiruv malakaviy ishimizni "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari"ga bag'ishlab, bu mavzuga yana qaytishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Mavzuning ilmiyligi:

"Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari"ga bag'ishlangan ilmiy ishlar, ilmiy qo'llanmalar ko'plab yaratilgan bo'lsada, hozirgi zamon dunyo miqyosidagi ta'lim jarayoni ushbu mavzuga oid ilmiy izlanishlarni davom ettirishni, o'quvchilardagi adabiy til me'yorlarini shakllantirish, boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga erishish masalasini eng muhim vazifa deb qarashni taqazo etadi. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida ushbu mavzuga oid hozirgacha

yaratilgan ilmiy ishlarga, o'quv qo'llanma va maqolalarga hamda o'rta umumta'lim maktablarida uzoq yillardan buyon yoshlarga ta'lim va tarbiya berib kelayotgan tajribali pedagoglarning ilg'or tajribalariga suyardik.

Mavzuning maqsadi:

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari”ni o'rganish, tahlil qilish, tajribadan o'trazish, ushbu uslublarni ana'naviy dars usullaridan afzal tomonlarini aniqlash, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning vazifasi:

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” nomli bitiruv malakaviy ishimizning quyidagi muhim masalalarini mavzuning vazifalari etib belgiladik:

1. Boshlang'ich sinfl ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni o'rgatib borishning maqsad va vazifalari;
2. Boshlang'ich sinfl ona tili darslarida o'quvchilarga mavzuga oid og'zaki va yozma mashqlar bajartirib borishning ahamiyati;
3. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari;
4. 2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarida bajariladigan qo'shimcha mashqlar;
5. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanishning ahamiyati;

Mavzuning ob'yekti:

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” mavzusiga oid ishlab chiqqan usullarimizni Namangan shahridagi 31-o'rta umumta'lim maktabining 2 “F”– sinfida tajribadan o'tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur o'rta umumta'lim maktabining 2 “B”– sinfini tanladik.

Mavzuning tuzilishi:

“Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, tajriba – sinov ishlari, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlardan iborat.

1. Bob. Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid mashqlar bajarish orqali yangi bilimni mustahkamlash

1.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni o'rgatib borishning maqsad va vazifalari

Boshlang'ich sinflarda morfologiyadan «ot», «sifat», «son», «fe'l», «olmosh tushunchalarini; sintaksisdan «gap», «ega», «kesim», «ikkinchi darajali bo'lak», «uyushiq bo'lak, undalma» tushunchalarini; so'z yasalişidan «o'zak», «qo'shimcha», «o'zakdosh so'zlar» kabi tushunchalarni shakllantirish ustida ish olib boriladi.

O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, o'quvchilar aqliy faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun u tushuncha nimaligini, tushunchani bilib olish jarayonining xususiyatlarini, tushunchani o'zlashtirish qanday sharoitda natijaliroq bo'lishini ko'z oldga aniq keltirishi lozim.

Tushuncha atrof-muhitdagi predmet va hodisalarning muhim belgilari va o'zaro aloqadorligi aks ettirilgan tafakkur formasini tasvirlab ko'rsatadi.

Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarning muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakllantirishda belgilarini kuzatish, sistemaga solish va umumlashtirish mumkin bo'lgan aniq, hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi. Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalarning o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabki materialning o'zi yetarli darajada mavhumdir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana ham umumlashtirilgani hisoblanadi.

Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o'quvchilarda tushuncha juda ko'p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun

mavhum tafakkur ma'lum darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Mavhum tafakkur ta'lim jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko'nikmalarni va lingvistik tasavvur hamda bilimlar kompleksini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Ko'pgina psixolog olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O'quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qay darajada o'sganligiga bog'liq. Mavhumlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar so'zlarni taqqoslay olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko'ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, fe'l o'rganilganda o'quvchilar fe'l predmetning harakatini bildirishini bilib oladilar. Yurmoq, ekmoq, chopmoq kabi fe'llarda leksik ma'no grammatik ma'noga mos keladi. Ko'p fe'llarda bunday moslik bo'lmaydi. Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o'zgarishi kabilar ham tushuniladi: uxlamog, o'ylamoq, sevmoq, o'smoq, ko'karmoq va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma'noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o'rgana boshlagan o'quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko'proq yurish, siljish ma'nosida aniq tasavvur qiladilar. Shuning uchun fe'lni o'rganishning boshlang'ich bosqichida yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq kabi so'zlarni predmetning harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani o'rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o'quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so'zlarni ot turkumiga kiritmaydilar. Tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilarda mavhum ko'nikmasini o'stirish, ular diqqatini so'zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma'nosiga qaratish va shu guruhdagi so'zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan barcha so'zlar «ot» turkumiga birlashadi; predmetni bildirish, son (birlik va ko'plikda kelish), egalik qo'shimchalari bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so'zlar uchun umumiy grammatik belgilar

hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi.

Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq tushunchani o'zlashtirish davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayonining psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy o'sishi bir-birini taqazo etishini, grammatik bilimning nutqdagi rolini asos qilib oladi.

Grammatik tushunchalarda til hodisalarining muhim belgilari umumlashtiriladi. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida muayyan til materiali analiz qilinadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha uchun ikki muhim belgi xarakterli: 1) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha — so'zning o'zgaradigan qismi; 2) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha sintaktik vazifani bajaradi, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarda o'qituvchi muayyan bir tushunchaning muhim belgilarini aniqlab oladi, dastur talabiga ko'ra shu sinf o'quvchilarini tushunchaning qanday belgilari bilan tanishtirishni, foydalanganda yaxshi natija beradigan leksik materiallarni hamda metodik usul va vositalarni belgilab oladi.

Til materialini analiz qilish jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilari ajratiladi (tushuncha ustida ishlashning birinchi bosqichi), so'ng belgilar o'rtasidagi bog'lanish topiladi, bir tushunchaning xususiyati sifatida ular orasidagi o'zaro munosabati aniqlanadi, atama beriladi (tushuncha ustida ishlashning ikkinchi bosqichi). O'quvchilar o'rganilgan tushuncha mohiyatini anglashlari va bilimlarni nutq tajribasiga tatbiq etishlari uchun tushuncha ta'rifini aniq, ifodalash ustida ishlanadi (tushuncha ustida ishlashning uchinchi bosqichi); to'rtinchi bosqichda o'rganilgan kategoriyani bilib olish uchun mashq; qilinadi; amaliy

vazifani hal qilish maqsadida (fikrni aniq ifodalash, soʻzni va gapni toʻgʻri yozish uchun) oʻquvchilarda tushunchaga asoslanish koʻnikmasi shakllantiriladi.

Shunday qilib, tilga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni shartli ravishda toʻrt bosqichga boʻlinadi:

- Birinchi bosqich — tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda maʼlum soʻz va gaplarning leksik maʼnosidan kelib chiqib mavhumlashtirish amalga oshiriladi va shu til hodisasi, til kategoriyasi uchun umumiy hisoblangani ajratiladi. Oʻquvchilar tahlil qilish va mavhumlashtirishning aqliy amalini bilib oladilar.
- Ikkinchi bosqich — tushunchaning belgilarini umumlashtirish ular orasidagi bogʻlanishni aniqlash (tushunchalarning ichki bogʻlanishini aniqlash), atamani berish. Oʻquvchilar taqqoslash va tarkib amalini bilib oladilar.
- Uchinchi bosqich — tushuncha taʼrifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bogʻlanishni aniqlash.
- Toʻrtinchi bosqich — yangi til materialini asosida oʻrganilayotgan tushunchani aniqlashtirish. Bilimni tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ishlash. Oʻrganilayotgan tushunchaning ilgari oʻzlashtirilgan tushunchalar bilan bogʻlanishini aniqlash.

Koʻrsatilgan bosqichlarda «fe'l» grammatik tushunchasini shakllantirish jarayoni misolida koʻrib chiqaylik.

Tushuncha ustida ishlash til materialini tahlil qilish va tushunchaning muhim belgilarini aniqlashdan boshlanadi. Koʻpgina tekshirishlar, agar oʻquvchilar oʻqituvchi rahbarligida muayyan vazifani bajarish bilan dastlabki til materialini oʻzlari tuzsalar yoki tanlasalar, ularning analitik faoliyatning samaradorligi ortishini koʻrsatdi. Masalan: oʻquvchilar harakatlarini kuzatish asosida gap tuzadilar. Darsda oʻquvchilarni feʼldan foydalanish va eʼtibor bilan yozishga undaydigan qulay nutqiy vaziyat yaratiladi. Ekskursiya, yaqinda koʻrilgan film, shu darsda koʻrsatilgan diafilmning biror qismi, oʻqilgan hikoya, rasm materialini

yuzasidan gaplar tuzish ham mumkin. Gap tuzishda fikrni aniq ifodalaydigan kerakli soʻz (fe'l)ni jamoa boʻlib topish imkonini beradigan vaziyat yaratish muhimdir. Masalan: mavzuni oʻrganishdan oldin oʻquvchilar bahorda tabiatda yuz beradigan oʻzgarishlarni kuzatadilar.

Oʻqituvchi: — Bahorda tabiatda qanday oʻzgarishlar yuz beradi?

Oʻquvchilar: — Kunlar isiydi.

— Oʻtlar koʻkaradi.

— Daraxtlar kurtak chiqaradi.

— Bodom gullaydi.

— Shaftoli, oʻriklar gullayapti.

— Olma endi gullaydi.

(Oʻquvchilar oʻqituvchi tavsiya qilgan bir necha gapni izohlab yozadilar.)

Oʻqituvchi: Narsaning harakatini ifodalash uchun siz qaysi soʻzlardan foydalandingiz? Ularning tagiga ikki toʻgʻri chiziq chizing. (Oʻquvchilar vazifani bajaradilar).

- Harakatni bildirgan soʻzlarga soʻroq bering va taqqoslang. (Oʻquvchilar nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? soʻroqlarini beradilar.)

- Endi darslikda fe'l haqida nima deyilganini oʻqing.

- Shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar nima deyiladi, qanday soʻroqlarga javob boʻladi?

- Bodom gulladi. Olma endi gullaydi gaplarini gap boʻlaklariga koʻra tahlil qiling (Oʻquvchilar eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki toʻgʻri chiziq, ikkinchi darajali boʻlak tagiga toʻlqinli chiziq chizadilar.)

- Gulladi, gullaydi fe'llari gapda qaysi boʻlak vazifasida keldi. (Kesim.)

- Endi fe'l haqida nimlarni bilib oldingiz? Rejadan foydalanib ayting (umumlashtiring):

1. Fe'l nima? (Soʻz.)

2. Nimani bildiradi? (Shaxs va narsaning harakatini.)

3. Qanday soʻroqlarga javob boʻladi? (Nima qildi? nima qilyapti? Nima qiladi?)

4. Qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi? (Kesim.)

- Kitobdagi qoidada rejaning qaysi punktlariga javob berilgan? Reja punktini o'qing va unga javob bering.

O'quvchilar kitobdagi va qo'shimcha mashqlarni ishlaydilar.

- Fe'ldan boshqa yana qanday so'z turkumlarini bilasiz? (Ot, sifat, son.)

- So'zlarni taqqoslang: gul, gulli, gulladi. So'z turkumlari (ot, sifat, fe'l) bir-biridan qanday farqlanadi? (Rejadan foydalanib javob beradilar.)

O'quvchilar mustaqil bir necha gap tuzadilar, ayrimlarini yozib, fe'llarning tagiga chizadilar.

Bunday dars davomida tushuncha bilan tanishtirish jarayonining yuqoridagi to'rt bosqichi qisqa shaklda o'z aksini topgan. Biroq bu darsda o'quvchilar tushuncha bilan faqat tanishtirildi, uni o'zlashtirish uchun esa dasturida mavzuni o'rganishga ajratilgan barcha darslarda mashqlar tizimini bajarish lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida "Fe'l" tushunchasi chuqurlashadi va kengayadi, o'quvchilar fe'lning yangi belgilarini o'rganadilar (fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik, ularning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, fe'l zamonlari). O'quvchilarda fe'llarni shaxs-son, zamon, bo'lishsizlik qo'shimchalari bilan o'zgartirish va fikr bayon etish maqsadiga mos fe'l shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Tushunchani shakllantirish jarayonida so'zning leksik ma'nosi, uning gap tarkibida boshqa so'zlar bilan birga kelgandagi ma'nosi asta-sekin aniqlanib , oydanlashtirib boriladi, og'zaki va yozma nutqda so'zni uslubiy to'g'ri ishlatish ko'nikmasi orta boradi. Buning uchun o'quvchilar so'zning ko'p ma'noliligi, o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi, sinonim va antonim so'zlar bilan elementar tanishtiriladi.

O'rganilgan grammatik belgilarni amalga keng tatbiq etish va ulardan jonli nutqda aloqa maqsadida bevosita foydalanish uchun grammatik tushunchani shakllantirishda o'quvchilarda mavhumlashtirishni va so'zlar uchun xarakterli bo'lgan umumiy grammatik belgilarni sin tezlashni o'stirish zarur, shuningdek, ular so'zning leksik ma'nosini chuqur bilishlariga erishish muhimdir. Bular

o'quvchilarning nutqini o'stirish mohiyatini aks ettiradi, yani o'quvchilar nutqida so'zlardan amaliy foydalanishga, so'zning leksik ma'nosini tor tushunishdan chuqurroq tushunishga o'tadilar, so'zning leksik va grammatik ma'nolari bir-biriga ta'sir qilishini tushuna boshlaydilar, natijada nutqda so'zlardan ongli foydalanishga asos yaratiladi.

Grammatik tushunchalarni samarali o'zlashishini ta'minlaydigan metodik shartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilar aqliy faoliyatini faollashtirish. Bilimni o'zlashtirishning natijasi ma'lum darajada o'qitish metodlariga bog'liqdir. Bayon metodi asosan o'quvchilarning eslab qolishiga mo'ljallanadi va ularning bilish faoliyatini faollashtira olmaydi, shuning uchun kutilgan natijani bermaydi. Maktab tajribasini ommalashtirish va olimlar («P. V. Zamkov, Yu.N.Babanskiy, N. P. Strezikozin va boshqalar)ning maxsus tekshirishlari ta'kidlashicha, izlanish metodlari (boshlang'ich sinflarda qisman izlanish metodi) ko'proq samarali hisoblanadi. Grammatik tushunchani shakllantirishda izlanish vaziyati o'qituvchi bergan vazifa va uni jamoa bo'lib bajarish vaqtida yaratiladi. Izlanish vaziyati o'quvchilarni yangilikni bilishga qiziqtiradi va vazifani bajarish usulini mustaqil ravishda ijodiy tanlashga undaydi. Masalan, o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirishda (2-sinf) o'qituvchi doskaga gul — gulchi, g'alla-g'allakor, traktor — traktorchi, so'zlarini ikki ustun tarzida yozadi. O'quvchilarga ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni kuzating, ma'nolaridagi farqini o'ylab ko'ring, shu so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan qismini toping» topshirig'ini beradi o'tkazilgan muhokamadan so'ng o'quvchilar quyidagicha xulosaga keladilar: gul so'zi o'simlikning bir turini, gulchi esa gullarni parvarish qiluvchi kishi ma'nosini bildiradi; g'alla o'simlik, g'allakor – g'alla etishtiruvchi kishi; traktor so'zi qishloq xo'jalik mashinasini, traktorchi esa traktorda ishlovchi kishi ma'nosini bildiradi. So'zning –chi, -kor qismi ikki so'zning ma'nosini farqlashga xizmat qiladi; -chi, -kor alohida kelganda ma'no anglatmaydi, bular qo'shimcha; so'z qo'shilganda ishlovi, shug'ullanuvchi kishi ma'nosini anglatyapti, yangi ma'noli so'z hosil bo'lyapti; -chi, -kor so'z yasovchi qo'shimcha.

Muhokamali vaziyatni orfografik mavzu bilan tanishtirish jarayonida ham yaratish mumkin. Masalan, o'qituvchi "Hayvonlarga qo'yilgan nomning bosh harf bilan yozilishi" mavzusini tushuntirish uchun o'quvchilarga "Kim qanday uy hayvonlarini boqadi? Ularga o'zingiz nom qo'rganmisiz? Qanday nom qo'ygansiz?" savollarini beradi. O'quvchilar tartib bilan o'zlari boqayotgan hayvonlari va unga qo'rgan nomlarini aytadilar (mushuk – Mosh, kuchuk – Qoplun, sigir – Targ'il, ot – Saman kabi); o'qituvchi ikki ustun shaklida doskaga yozib boradi. O'qituvchi «Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni o'qing, ularni taqqoslang. Ularning yozilishida qanday farq bor? Nima uchun? Isbotlang» topshirig'ini beradi. Bu savol-topshiriqlar harakteri bolalarni o'ylashga, izlanishga majbur qiladi. Ular birinchi ustundagi so'zlar kichik harf bilan, ikkinchi ustundagilar esa katta (bosh) harf bilan yozilganini aytadilar, ammo nima uchun shunday yozilganini isbotlashga ularning bilimlari etishmaydi. Shunday qilib muammoli vaziyat yaratiladi. O'quvchilar yangi materialni o'rganish zarurligini sezadilar. Bu metodka, eng muhimi, muammoli vaziyat yaratish, til hodisalarini tahlil qilish, o'zaro taqqoslash omillarini bajarish bilan bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Suhbat — muhokama jarayonida muammoni o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zlari hal qilishlari yoki o'qituvchi tomonidan hal qilinishi mumkin.

Muhokamaning borishi bilimlar asosida topshiriqlarni faol bajarishni, faol aqliy faoliyatni talab qiladi.

II. O'quvchilarda so'z va gapga lingvistik munosabatni o'stirish ustida maqsadga yo'naltirilgan ishlar. O'quvchilarda so'z va gapga lingvistik munosabat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, mavhum tafakkurni o'stirish jarayonida shakllantiriladi va tilning semantik va grammatik tomonining bir-biriga ta'sirini anglashni bildiradi.

O'quvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari bo'lgan so'z, morfema, so'z birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli o'zlashtiradilar. So'zga lingvistik munosabat so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni o'rtasidagi

bog'lanishini aniqlash, so'zni morfemik tahlil qilish va so'zga leksik ma'no berishda morfemaning rolini tushunish; so'zni grammatik tahlil qilish va shu so'zning muayyan so'z turkumiga oid ekani bilan uning grammatik belgilari o'zaro bog'liqligini tushunish ko'nikmasining shakllanishiga qarab o'sib boradi.

Lingvistik munosabat o'quvchilarda asta-sekin shakllantirib boriladi, ularda bilish, tushunib olish saviyasi ham har xil bo'lishi mumkin. Masalan, II sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmalarini topadilar, ammo u so'z birikmasidagi so'zlar o'zaro qanday, ya'ni nimalar yordamida bog'langanini tushuntira olmaydilar. III sinf o'quvchilari gapdagi so'z birikmasini topadilar va so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar (kelishik, shaxs-son qo'shimchalari) yoki ohang yordamida bog'langanini tushuntiradilar, ya'ni bog'lanish grammatik vositalar bilan ifodalanishini ko'rsatadilar. Bu so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish mohiyatini elementar darajada tushunish bo'lib, uni yuqori sinflarda chuqurroq (so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning bog'lanish turlari, bosh va ergash so'zning xususiyatlarini) tushunadilar.

O'qituvchi o'quvchilarda so'zga, so'z birikmasi va gapga lingvistik munosabatni ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq o'stirib boradi, xususan, o'rganiladigan kategoriyani o'quvchi tushunib olishiga g'amxo'rlik qiladi.

III. Yangi tushunchani ilgari o'rganilgan tushunchalar tizimiga kiritish tushunchani o'zlashtirish, bilimni nutq tajribasiga tatbiq etishning muhim sharti hisoblanadi. Tushunchalar orasida bog'lanishni vujudga keltirish, amalga oshirish o'quvchilar o'zbek tilidan egallaydigan bilimlar tizimiga hamda tildan ongli foydalanishga poydevor bo'ladi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni bilib olish amaliy (grammatik, orfografik, nutqiy) vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni ko'prog', tatbiq, etishga imkon beradi.

Tushunchalar orasidagi bog'lanishni aniqlamay, ularni bilimlar tizimiga kiritmay turib o'quvchilar tilni ongli o'zlashtira olmaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan asosiy bog'lanish yo'llari:

- So'zga beriladigan morfologik so'roqlar va ularning grammatik belgilari (kim?, nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsani bildiradi → birlik va ko'plikda qo'llanadi → egalik bilan o'zgaradi → kelishiklar bilan turlanadi; qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning belgisini bildiradi → o'zgarmaydi; necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z shaxs va narsaning soni va tartibini bildiradi → asosan, o'zgarmaydi; nima qildi? nima qilyapti?, nima qiladi? so'rog'iga javob bo'lgan so'z predmet harakatini bildiradi → bo'lishli (va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi, shaxs-son qo'shichalari bilan tuslanadi → o'tgan, hozirgi va kelasi zamoni ko'rsatadi);
- so'z turkumi — gap bo'lagi (ot gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak, sifat — ikkinchi darajali bo'lak, soi — asosan, ikkinchi darajali bo'lak, fe'l — kesim) vazifasida keladi;
- bosh kelishikdagi ot — ega, boshqa kelishiklardagi otlar — ikkinchi darajali bo'lak;
- kishilik olmoshlari—fe'llarda shaxs (agar fe'l men yoki biz olmoshlari bilan qo'llansa, I shaxs, sen yoki siz olmoshlari bilan qo'llansa, II shaxs ifodalanadi);
- umumiy o'zak va o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi umumiylik (o'zakning umumiyligi o'zakdosh so'zlarning ma'nosidagi o'xshashlikka sabab bo'ladi);
- so'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi (so'zning morfemik tarkibi o'zgarsa, ko'proq; uning leksik ma'nosi o'zgaradi: gul — gulchi, guldon, gulla kabi

IV. Ayrim til kategoriyalari bog'lanishining mohiyati yangi til kategoriyasini o'rganish jarayonida ochildi, shuningdek, bir yoki bir necha til kategoriyasi o'rganilgandan keyin oydinlashadi. Masalan, so'zning leksik ma'nosi va uning morfemik tarkibi so'zning ma'noli qismlarini o'rganish jarayonida bir yo'la muhokama qilinadi, chunki u yoki bu morfemaning rolini boshqacha yo'l bilan tushuntirib bo'lmaydi; o'qituvchi so'z tarkibini o'zgartiradi va shu bilan bog'liq;

holda soʻz maʼnosining oʻzgarishini koʻrsatadi, bu oʻzgarish soʻzning qaysi qismi (soʻz yasovchi qoʻshimcha) hisobiga hosil boʻlganini tushuntiradi: ishchi - ishla — ishchan; paxtakor — paxtazor.

Feʼllarning shaxs-son bilan tuslanishi kishilik olmoshlari oʻrganilgandan soʻng, feʼlda shaxs kishilik olmoshlarining uch shaxsini koʻrsatishi bilan bogʻlab oʻrganiladi.

Maktabda grammatik materialni oʻrganish amaliy yoʻnalishga ega boʻlgani va birinchi navbatda, oʻquvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqazo qilishini tushunish bilan birga, oʻquvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, yaʼni soʻzlarni yozish, gap tuzish, soʻzni tahlil qilishda foydalanishga oʻrgatish ham muhimdir. Oʻqituvchi, tilni oʻrgatish vazifalarini hisobga olib, doimo oʻquvchilarning nutqiy tajrbasiga suyanadi va til kategoriyalarining bogʻliqligi haqidagi bilimlarni tajribaga tatbiq etish jarayoniga yoʻnaltiradi. Bilim komponentlari oʻrtasidagi bogʻlanishni aniqlash bilimni tajribaga, oʻquvchilarning yozma va ogʻzaki nutqiga tatbiq etish imkonini beradi. Ona tilini oʻrganish jarayonida bilimlarning izchilligi qanday taʼminlanadi? Avvalo, maktab dasturi lingvistik materialni oʻrganishda yangi oʻrganiladigan materialning ilgari oʻrganilganlar bilan ilmiy asoslangan bogʻlanishini aniqlashga imkon beradigan izchillikni koʻzda tutadi. Oʻqituvchi bu bogʻlanishning mohiyatini metodik jihatdan aniq koʻz oldiga keltirishi zarur. Oʻzaro bogʻliq boʻlgan til hodisalarini ketma-ket va parallel oʻrganish mumkin. Bularning qaysi biridan foydalanish maʼqulroq degan masala koʻproq, materialning lingvistik mohiyatidan kelib chiqib hal qilinadi. Masalan, kishilik olmoshlari feʼldan oldin oʻrganiladi, bu feʼlning shaxs-son bilan tuslanishini kishilik olmoshlariga bogʻlab oʻrganish imkonini beradi. Oʻqituvchi yangi oʻrganiladigan materialni ilgari oʻrganilganlar bilan bogʻlaydi. Buning uchun til tushunchalarini taqqoslaydi va bir-biriga qarama-qarshi qoʻyadi. Masalan, soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarni oʻrganishda ular soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan taqqoslanadi (soʻz yasovchi qoʻshimcha yangi soʻz hosil qilish uchun xizmat qilsa, soʻz oʻzgartuvchi

qo'shimcha so'zning shaklini o'zgartirish uchun, gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi aniqlanadi).

V. Tushunchani ko'rgazmali o'rganish. Tushunchani shakllantirishning turli bosqichida ko'rgazmalilikdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Tushuncha belgilari bilan tanishtirishning boshlang'ich bosqichida ko'rgazmalilikdan o'rganiladigan hodisaning belgilarini nutqda aniq, ko'rsatish maqsadida foydalaniladi. Til tushunchalarini shakllantirishda foydalaniladigan ko'rgazmali vositalarning o'ziga xos xususiyati o'rganiladigan ob'ekt hisoblangan so'z, so'z birikmasi, gap, gap bo'lagi va boshqalarga mos bo'ladi. Shunday ekan, ko'rgazmali vositalarga jadval, shema, biror predmet, uning rasmi bilan bir qatorda til materialning o'zi ham kiradi. Tanlangan matnlar, alohida so'z va gaplarda o'rganilayotgan hodisa aniq va lo'nda berilgan, nutqiy vazifasi va grammatik xususiyati ravshan ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu ichki ko'rgazmalilik o'quvchilarga tushuncha belgilarini mavhumlashtirish, o'rganilayotgan hodisani biror tomon-dan o'xshashni bo'lgan boshqa hodisalar orasida topish imkonini beradi. Masalan, o'zakdosh so'zlarni o'rganishda tarkibida bir necha o'zakdosh so'z bo'lgan matndan foydalanish maqsadga muvofiq: 1. Maktabimiz hovlisida katta gulzor bor. Unga har xil gul ekilgan. Gullarni gulchi o'quvchilar parvarish qiladilar. 2. Rahimning otasi zavodda ishlaydi. U ilg'or ishchi. Rahimning o'zi — ishchan bola. Bu ikki matnda uchtdan o'zakdosh so'z bo'lib, ularning ikki muhim belgisi (bir xil umumiy qismga egaligi va ma'nolaridagi o'xshashlik)ni hisobga olgan holda, o'zakdosh so'zlar yuzasidan umumlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'zakdosh so'zni shu so'zlarning bir formasi bo'lgan so'z (gullarni) bilan taqqoslab, o'zakdosh so'zlar bilan so'z formasi o'rtasidagi farq haqida elementar tushunchaga ega bo'ladilar.

Tushunchaning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifalarning o'zi o'quvchilarni ularni bajarishga undashi, majbur etishi lozim. Bu bilan tushuncha ko'rgazmaliligi ta'minlanadi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari tushunchasining mohiyatini ochishda ikki-uch gapdan bitta gap tuzish vazifasini berish maqsadga muvofiq. (Bahorda biz qaldirg'ochlarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz

maynalarni quvonib kutib olamiz. Bahorda biz chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz.— Bahorda biz qaldirg'ochlarni, maynalarni, chug'urchuqlarni quvonib kutib olamiz.) Gaplar gap bo'laklari jihatidan tahlil qilinadi; o'quvchilar uchala gapda takrorlangan so'zlarni aytadilar; bunday hollarda kishilar uch gap o'rniga bitta gapdan foydalanishlarini tushunadilar. Shunday qilib, ular uch gapdan bitta gap tuzadilar, uni gap bo'laklariga ko'ra tahlil qiladilar, shemasini tuzadilar. Bu vazifalarni bajarish bilan o'quvchilar ko'rgazmali xulosa chiqaradilar: bir kesimga bir necha ikkinchi darajali bo'lak bog'lanishi va ular bir xil so'roqqa (nimalarni?) javob bo'lishi mumkin; bir bo'lakka qarashli va bir xil so'roqqa javob bo'lgan bunday so'zlar gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda foydalanilgan ko'rgazmalilik o'rganilayotgan til hodisalarining belgilarini ajratishga qaratilgan, ya'ni ko'rgazmalilikdan tushunchani ta'riflashdan oldin foydalanilgan.

Darsda foydalanish uchun ko'rgazmali material tanlashda o'qituvchi qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quvchilar nimani bilib olishlarini aniq ko'z oldiga keltirishi kerak. Bir ko'rgazma materialdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Masalan, predmet yoki uning rasmidan so'zning leksik ma'nosini tushuntirishda ham, grammatik tushunchani shakllantirishda ham foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilarni sifatning nutqdagi ahamiyati bilan tanishtirish uchun o'qituvchi berilgan predmetni tasvirlash, uning belgilarini aytish vazifasini topshiradi. O'quvchilar har qanday predmetni tasvirlash uchun o'z nutqlarida sifatlardan foydalanadilar. Bu — tabiiy. O'qituvchi «Predmetni tasvirlashda siz qaysi so'zlardan foydalandingiz? Nima maqsadda?» kabi savollar berib, bolalar diqqatini o'rganiladigan grammatik tushunchaning (bu o'rinda sifatning) belgilariga qaratadi. (O'quvchilar predmetni tasvirlash uchun qaysi sifatlardan bir predmetni boshqasidan ajratish maqsadida foydalanganliklarini aytadilar.) Bu misolda ko'rgazmali material nutqda grammatik tushuncha (sifat) ning rolini kuzatish maqsadida foydalanganliklarini va o'quvchilar konfet materialidan umumlashtirishga o'tdilar.

Tushunchani shakllantirish uchun jadval va sxemalardan keng foydalaniladi. Bu ko'rgazmalardan ko'proq, tushuncha belgilari ajratilgandan so'ng, mavhumlashgan belgilarini umumlashtirish, ular o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Shunday qilib, grammatik tushunchani o'zlashtirishga yordam beradigan metodik shartlar o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, o'quvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliliigi, o'quvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda so'z yasashga doir grammatik mashqlar bajarish ona tili grammatikasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Maktabda tildan nazariy bilimni o'rganishdan maqsad fikrni og'zaki va yozma tarzda grammatik to'g'ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo'llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o'rgatib borish talab etiladi.

Mashqlar tizimi tushunchani o'zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablashib borishini va o'quvchilar mustaqilligini o'sib borishini hisobga olgan holda, mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko'zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o'zaro bog'lanishiga asoslangan.

1.2. Boshlang'ich sinfl ona tili darslarida o'quvchilarga mavzuga oid og'zaki va yozma mashqlar bajartirib borishning ahamiyati;

Mashq turlari. Grammatik mashqlar turli asosga ko'ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turlari mavjud. Agar bilimni shakllantirish xarakteri asosga olinsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Morfologik mashqlar (bunga leksik-morfologik mashqlar ham kiradi);
2. Sintaktik mashqlar. Agar o'quvchilar faoliyatining xarakterli, ya'ni mashq jarayonida o'quvchilar bajaradigan aqliy omillar xarakteri asos qilib olinsa, mashqlar analitik, sintetik, taqqoslashga, gruppalashga, umumlashtirishga oid mashqlarga bo'linadi. Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra — sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga ko'ra sintetik-analitik mashq, hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam qo'llanadi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, mashqni mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlash uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot) ni aniqlashi (so'z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko'ra bu mashq sintaktik mashq hisoblanadi.

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so'z turkumiga ko'ra (morfologik) tahlilni, gap bo'laklariga ko'ra (sintaktik) tahlilni o'z ichiga oladi. Gap bo'laklariga ko'ra tahlil o'quvchilar o'zlashtirgan sintaktik bilimlarning me'yoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga ko'ra, I sinf o'quvchilari «ega» va «kesim» terminlaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapning bosh bo'laklarini amaliy ravishda topish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, ya'ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so'z (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan so'z(kesim)ni topadilar.

Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda o'quvchilar shunday fikr yuritadilar: «Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar?— bolalar (so'zning tagiga bitta to'g'ri chiziq; chizadilar). Bolalar — nima qildilar?— terdilar(so'zniig tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadilar). Bolalar - terdilar — gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) — olmalarni».

II sinfda I sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Misol uchun II sinf o'quvchisi Oppoq paxtalar qiyg'os ochildi gapini quyidagicha tahlil qiladi: Gap paxtalar haqida aytilgan. N i m a l a r?—paxtalar — ega (tagiga bir chiziq, chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi — n i m a q i l d i?— kesim (tagiga ikki to'g'ri chiziq chizadi). Q a n d a y? (ochildi)— qiyg'os — ikkinchi darajali bo'lak, kesimni izohlayapti (tagiga to'lqinli chiziq chizadi). Qanday? (paxtalar) — oppoq (paxtalar) ikkinchi darajali bo'lak, egani izohlayapti. Paxtalar ochildi—gapning asosi. Oppoq paxtalar va qiyg'os ochildi — so'z birikmasi.

III,IV sinfda sintaktik tahlil sifat jihatidan o'zgarmaydi, ammo so'z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi.

Morfologik tahlilning mohiyati so'zning qaysi so'z turkumi ekani, gapda qanday grammatik formada kelganida ifodalanadi.

To'liq morfologik tahlilda o'quvchi so'z turkumining o'zi o'rgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf o'quvchisi shu so'z qanday savolga javob bo'lishini va nimani bildirishini aytadi shaxs, narsa belgisi, harakati).

III sinfda so'z turkumlari o'tilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- Ot: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Birlik yoki ko'plikda.
- Sifat: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- Fe'l. 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli? yoki bo'lishsiz.

Og'zaki tahlil namunasi: Mevali daraxtlar gulladi. Mevali — sifat, qanday — mevali; daraxtlar oti bilan bog'langan: mevali daraxtlar; daraxtlar - ot, nimalar? — daraxtlar, ko'plikda; gulladi — fe'l, n i m a q i l d i?-gulladi,bo'lishli.

IV sinfda o'rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil bir oz to'ldiriladi va quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- Ot: 1. So'z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yo ko'plikda. 4. Egalik (qo'shimchasi, shaxs-soni. 5. Kelishik.
- Sifat. 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- Son: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- Olmosh: Kshilik olmoshi: 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Shaxs-soni. 4. Kelishik.
- Fe'l. 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz. 4. Shaxs-soni. 5. Zamoni.

O'quvchilar tahlil tartibini bilib olishlari uchun o'qituvchi bu tartibga rioya qilib so'zga xarakteristika berishning qulayligini tushuntiradi.

So'z turkumiga ko'ra tahlil og'zaki va yozma tarzda o'tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To'liq bo'lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi.

Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o'zbek tilida so'z qanday ma'noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil III sinfdan boshlanadi. Bu sinfda o'quvchilarga o'zakdosh so'zlar, o'zak o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani, so'z yasovchi qo'shimchalar va so'z o'zgartuvchi (forma yasovchi) qo'shimchalar haqida elementar ma'lumot beriladi.

So'z tarkibiga ko'ra tahlil quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

- So'zga so'roq berish va u nimani anglatishini bilish.
- 2. O'zakni aniqlash. Buning uchun so'zga o'zakdosh so'zlar tanlash. O'zakdosh so'zlarni taqqoslash va umumiy qismi (o'zak)ni aniqlash.
- 3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlash. Bu yangi so'z yasash uchun xizmat qilishini aytish.
- 4. So'z o'zgartuvchi (forma yasovchi) qo'shimchani aniqlash. Bu so'zni boshqa so'z bilan bog'lash uchun xizmat qilishini aytish.

III sinfda «Soʻzning tarkibi» mavzusi toʻliq, oʻrganilgach, gulzor soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil qilish tartibi:

- 1. Qaysi soʻz turkumi ekanini bilaman Gulzor soʻzi nima? soʻrogʻiga javob boʻladi, narsani bildiradi, bu – ot.
- 2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: gulzor, gulli, gulsiz, gulla. Ularni solishtirib, umumiy qismini topaman — gul.' Bu — oʻzak.
- (Ustiga belgisini qoʻyaman: gulzor.)
- 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman, gulzor soʻzi gul soʻziga -zor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. (belgisini qoʻyaman: gulzor.)
- 4. Bu soʻzda soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha yoʻq.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan soʻng shunday koʻrinish hosil boʻladi: gulzor.

III sinfda paxtakorga soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil qilish tartibi:

- Paxtakorga— ot.
- 2. Oʻzakni aniqlayman. Buning uchun oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: paxtakor, paxtazor. Solishtiraman. Umumiy qism — paxta. Bu — oʻzak. (Belgilayman: paxtakorga).
- 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: paxtakor soʻzi paxta soʻziga -kor soʻz yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. (Belgilayman: paxtakorga.)
- 4. Soʻz oʻzgartuvchi (forma yasovchi) qoʻshimchalarni aniqlayman: -ga — soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimcha, kelishik qoʻshimchasi (belgilayman: paxtakorga.)

III sinfda ishladim soʻzini soʻz tarkibiga koʻra ogʻzaki tahlil tartibi:

- Ishladim — fe'l.
- 2. Oʻzakni aniqlayman. Oʻzakdosh soʻzlar tanlayman: ishla, ishli, ishsiz, ishchan. Solishtiraman. Umumiy qism—ish. Ish — oʻzak.

- 3. Soʻz yasovchi qoʻshimchani aniqlayman: ishla feʼli ish soʻziga -la qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. -la — feʼl yasovchi qoʻshimcha.
- 4. Soʻz oʻzgartuvchi (forma yasovchi) qoʻshimchani aniqlayman: -di — oʻtgan zamon qoʻshimchasi, -m — shaxs-son qoʻshimchasi, I shaxs, birlik: ishladim.

Soʻz tarkibiga koʻra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. Soʻzni morfologik tahlil qilish uning leksik maʼnosini tushunishda, morfemalarni toʻgʻri yozishda oʻquvchilarga yordam beradigan muhim vositadir. Boshlangʻich sinflarda grammatik va morfemik tahlil bilan birga, soʻzni tovush-harf tomonidan tahlil qilishdan ham foydalaniladi. Bu tahlilning vazifasi soʻzda tovushlarning tartibini, ularning xarakterli xususiyatlarini, tovushlar va harflar oʻrtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi.

Boshlangʻich sinflarda tovush-harf tomonidan tahlil tartibi:

- Soʻzda nechta boʻgʻin bor, nechanchi boʻgʻin urgʻuli?
- Soʻzda nechta tovush va nechta harf bor? (Tovush soni harf sonidan kam yoki koʻp boʻlsa, sababini aytish.)
- Unli tovush nechta? Undosh tovush-chi?

Har bir tovushni xarakterlash. Tovush soʻzda qaysi harf bilan ifodalangan?

Yelkan soʻzini tahlil qilishga misol:

- Soʻzda ikki boʻgʻin bor. Ikkinchi boʻgʻin — urgʻuli: el-kan.
- Soʻzda oltita tovush, oltita harf bor.
- Soʻzda ikki unli tovush, toʻrt undosh tovush bor.
- y — undosh, jarangli

e — unli tovush, e harfi bilan ifodalangan

l — undosh tovush, jarangli, yozuvda el harfi bilan ifodalangan.

k — undosh tovush, jarangsiz, ka harfi bilan ifodalangan.

a — unli tovush, a harfi bilan ifodalangan.

n — undosh tovush, jarangli, en harfi bilan ifodalangan.

Tovush-harf tomonidan toʻliq boʻlmagan tahlildan soʻzning yozilishini tushuntirishda ham, orfoepik toʻgʻri talaffuz-ni oʻrgatish maqsadida ham

foydalaniladi. Masalan, maktab so'zi oxirida b undoshi p tarzida talaffuz qilinadi, jufti bor undosh, tekshiramiz: makabim — maktab, be harfi yoziladi.

Nutqiy xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Xato turlari. Nutqiy xatolarga noto'g'ri (noo'rin) tanlangan so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplar, morfologik formalarni noto'g'ri ishlatish kiradi.

Boshlang'ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to'g'rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot etarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to'g'rilash va oldini olish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Nutqiy xatolar uchga bo'linadi: lug'aviy-uslubiy, morfologik- uslubiy, sintaktik-uslubiy.

Boshlang'ich sinflarda lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

- Bir so'zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.
- Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning sinonimlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.
- So'zning ma'nosini yoki ma'no ottenkasini tushunmaslik na-tijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.
- Shevaga xos so'zlardan foydalanish. Bolalar bunday so'zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta'sirida qo'llaydilar. Bolalarda adabiy

tilda qo'llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida ular shevaga xos so'zlarni ishlatmaslikka o'rgatiladi.

Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'rilash va tu-shuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no ottenkasini tushuntirishdir.

Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

Kompozitsion, logik va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi.

Inshoga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilar kuzatish, material to'plash, faktlarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to'liq qamrab ololmaslik, materialni o'z o'rniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko'nikmasi murakkab ko'nikma bo'lib, u o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Logik xatolar:

- Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur epizod, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi psixologik holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinlar yozuvda aks etmay qoladi.
- Logik izchillik buziladi. Masalan, Zavodda paxtadan ip qilinadi. Terimchi paxtani paxta terish mashinasida teradi. Bunday logik xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish va tahlil qilish jarayonida oson to'g'rilaydilar.

Xatolarni to'g'rilash va oldini olish o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhlash turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'rilash va oldini olish tizimi ishlab chiqiladi:

- nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarida to'g'rilash;
- sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash; buning uchun darsning 15-20 minutlik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarni yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishga va uni to'g'rilashga tayyorlanadi;
- ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash; xatoni topish, tushuntirish va to'g'rilash;
- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi; o'qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o'quvchilar yo'l qo'ygan xato ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;
- o'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;
- imkoni bo'lsa, grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish - tushuntirish;
- o'quvchilarni o'zlari yozgan insho va bayonlarini o'zlari tekshirishga va mustaqil takomillashtirish («tahrir qilish»)ga maxsus o'rgatish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi har uch sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, 3- va 4- sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

Nutqiy xatolarni to'g'rilash. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur; o'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi; o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni

o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi – 20-25 minuti ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: «Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring». Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi, bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatik mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, «Olmosh» mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat uch asosiy omilga bog'liq:

- birinchidan, so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, bolalarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;
- ikkinchidan, bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

- uchinchidan, nutq o'zlashtirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasiga bog'liq.

2-bob. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish

2.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga mavzuga oid mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida va mavzuga oid grammatik tushuncha o'quvchilarga o'rgatilgandan so'ng mavzuga oid mashqlar bajarilmasa, o'rgatilgan qoida va grammatik tushunchalarni o'quvchilar mukammal ravishda o'rganib, o'zlashtirib olishlari qiyin bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni bajarishning afzalliklarini tekshirish, tahlil qilish uchun tajriba sinfda mavzuni o'tib bo'l gandan so'ng, uni mustahkamlash maqsadida mavzuga oid ikkita qo'shimcha mashqlarni bajarib ko'rdik. Mavzu o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirildi. Nazoratga olgan sinfimizga mavzuga oid grammatik tushunchalarni ayrim misollar orqali tushuntirdik, darslikda berilgan mashqni bajartirib ko'rdik, biroq mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajartirmadik. Natijada mavzuga oid qoidani o'quvchilarga tushuntirishimiz biroz qiyin bo'ldi. Grammatik tushunchalarni berish jarayoni bir muncha vaqtni sarflashni talab qildi.

O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun savollar berganimizda, savollarga berilgan javoblar biz kutgan natijani bermadi. Mavzuni 40% o'quvchilar o'zlashtirganini guvohi bo'ldik. Demak, yangi mavzuni o'zlashtirishda va o'quvchilar tomonidan mustahkamlashda, albatta, mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarilishi kerak.

O'quvchilarda yangi mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajartirganimizda quyidagi natijalarga erishdik; yangi mavzu o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirildi; nazariyani amaliyotda sinab ko'rishdi;

1. Nazariya amaliy mashq bilan bog'lanmoqda;
2. Amaliy mashqlar bajarish orqali o'quvchilarda shakllangan, grammatik tushunchalar mustahkamlanmoqda;
3. O'quvchilarning mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllandi;

4. Uyga berilgan mashqlarni qanday bajarish haqida o'quvchilarda ko'nikma paydo bo'ldi.

Boshlang'ich sinflarda yangi mavzuni o'zlashtirish va mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar, dastlab, o'qituvchi nazorati ostida mashqlar bajarishlari lozim. Chunki mavzuga oid mashq ilk marta bajarilayotganda o'quvchilar mashqni notog'ri bajarib qo'yishlari mumkin. Birinchi va ikkinchi mashqlar o'qituvchi nazorati ostida, ba'zan uning ko'magi bilan bajarilsa, mashq to'g'ri bajariladi, mashqdagi so'zlarga savol berib qoidalar chiqariladi, amaliy mashq nazariya bilan bog'lanadi.

Mashqlar bajarishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan munosabatlarini oshiradi, qo'shimcha mashqlar bajarishga qiziqishlarini oshiradi. Asosiysi, o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllanib borishi rivojlanadi. O'quvchilar darsda qo'shimcha mashqlar bajarishi jarayonida erkin harakat qiladilar, erkin fikrlaydilar, bajarilayotgan mashqqa o'zlarining erkin ravishda munosabatlarini ifodalay oladilar.

Biz malakaviy ishimizni yozish mobaynida tajriba o'tkazayotgan sinfimizda yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlashda bajariladigan mashqlarni interfaol usullardan foydalanib bajarishni sinovdan o'tkazib, ushbu interfaol usullarni qo'shimcha mashqlar bajarishda ulkan samaralar berishini yoritishga harakat qildik.

Tajriba olib borayotgan sinfimizda quyidagi interfaol usullardan foydalanndik.

- **Aqliy hujum metodi;**
- **Muammoli ta'lim metodi;**
- **Kichik guruhlarda ishlash metodi'**

Ushbu noan'anaviy interfaol usullar yordamida o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar bajartirganaimizda o'qish-o'rgatish jarayonini yaxshi o'zlashtirishga olib keldi. O'z vaqtida aloqani tikladi. Motivatsiya yuqori darajada bo'lishini taminladi,

o'tilgan materialni puxta xotirada saqlab qolishga imkon berdi. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berdi.

Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda o'quvchilarga mashq shartidan kelib-chiqib o'quvchilar aqliga hujum qildik, o'quvchilarda fikr va g'oyalarni tug'ildi. Bu fikr va g'oyalarni umumlashtirib, yagona, to'g'ri xulosani chiqardik.

Muomli ta'lim interfaol usulidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlarini so'radik. Masalan, quyidagi muammoli vaziyat yuzaga keldi;

Gaplarda tushub qolgan kim? va nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib, nuqtalar o'rniga qo'ying, gaplarni ko'chiring.

1. O'quvchilarni sevib o'qishadi.
2.g'o'zaga suv quymoqda .
3. Oshpaz qozonga gurunchni solib, ..ni damladi.
4.mashinani tez haydab ketdi.
5. Bog'dan gullar uzib ,yasadim.

O'quvchilardan ushbu muammoni hal qilib berishni so'raganimizda, ular nuqtalar o'rniga gap mazmuniga mos so'zni qo'yib, biz o'rtaga tashlagan muammoni bartaraf eta oldilar.

Ushbu interfaol metod o'quvchilarni fikrlashga, muammoni qanday yechim, bartaraf etish choralarini o'ylashga, fikr va xulosalar chiqarishga, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon eta olishga katta yordam berdi.

Kichik guruhlarda islash interfaol metodidan tajriba-sinov ishlarimiz jarayonida kengroq foydalandik, chunki ushbu metod o'quvchilarni dars davomida quvnoqroq bo'lishiga, kayfiyatlarini yuqori bo'lishini taminladi. Mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishdan oldin, sinf o'quvchilarini uch kichik guruhlariga bo'lib oldik. O'quvchilarning taklif, istak va talablarini hisobga olgan holda kichik guruhlarini nomlab oldik. O'quvchilarga

ushbu kichik guruhlar o'rtasida 'Kim epchil, chaqqon va bilimdon' deb nomlangan musobaqa o'ynashimizni aytib, musobaqa shartini ularga tanishtirdik. So'ng har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchini doskaga chiqarib, berilgan mavzuga oid qo'shimcha mashqni shartiga ko'ra bajarishni buyurdik. Mashq bajarib bo'lingandan so'ng g'olib va mag'lub jamoalarga tegishli ballarni qo'yib, ushbu ballarni izohladik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik guruhlarda ishlash interfaol usuli yordamida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarganlarida erkin harakat qildilar, jamoalar g'alabasi uchun kurashdilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qildilar.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish, ayniqsa, mashqlarni interfaol dars metodlari yordamida bajarish o'quvchilarni mavzuni puxta egallashlarida, o'zbek tilining o'ziga xos grammatikasini o'rganishda juda ham katta ahamiyatga ega, degan tilshunos pedagog olimlarimiz fikrlariga qo'shilamiz.

Biz bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishning quyidagi samarali natijalarga erishish mumkinligini aniqladik:

- o'quvchilarning ona tili faniga nisbatan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgardi;
- ona tili faniga bo'lgan muhabbatlari yana oshdi;
- mashqlar bajarish ko'nikmalari rivojlandi;
- mustaqil ravishda mashq bajarish ko'nikmalari shakllandi;
- sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari rivojlandi;
- o'quvchilar yangi mavzuni tez va qisqa fursat ichida o'zlashtirishga erishdilar.

Mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni noan'anaviy dars metodlaridan, interfaol dars metodlaridan foydalanib bajarilganda yuqorida tilga olingan yutuqlar bian birga quyidagi ijobiy natijalarga erishdik;

- o'quvchilar darsda o'zlarini erkin his etdilar ;
- dars davomida erkin harakat qildilar;
- erkin fikrlash qobiliyatlari shakllandi;
- qiziqarli o'yinda bajonidil ishtirok etdilar;
- o'quvchilarning fikr va mulohazalarini erkin ravishda ifodalay olish qobiliyatlari shakllandi;
- o'quvchilarda qarama –qarshi fikrlar, munosabatlar paydo bo'ldi.
- paydo bo'lgan qarama-qarshi fikrlarni bir-biriga taqqoslab, to'g'ri fikrni aniqlay olish xususiyatlari shakllana boshladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yangi mavzuni o'zlashtirishda, mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishning ahamiyati nihoyatda kattadir. O'zbek tili grammatikasini o'rgatishda boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni o'qituvchi nazorati ostida bajarish o'quvchilar bilimini oshirishda katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzuga bog'lab mashqlar tuzushga o'rgatish juda ham nozik masala bo'lib, o'quvchidan, avvalo, o'zbek tilining grammatikasini mukammal egallashni, mavzuga oid mashqlar bajara olishni talab qiladi. Mavzuga oid mashq bajara olmaydigan o'quvchi mavzuga bog'lab mashq tuza olmaydi. Shuning uchun ham biz mavzuga bog'lab mashq tuzishga o'rgatishda o'quvchilarga quyidagi tartibda ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil qilishni tavsiya etamiz:

- o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish;
- mavzuni puxta egallash;
- mavzuga oid savollarga javob bera olish;
- mavzuga oid berilgan testni yecha olish'
- mavzuga oid kartochkalar bilan ishlay olish;
- mavzuga oid mashqlarni mustaqil ravishda yecha olish;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqorida sanab o'tilgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirilgandan so'ng mavzuga oid mashq tuzishga o'rgatish jarayonini boshlash imkoniyati tug'iladi.

Mavzuga bog'lab mashq tuza olish o'quvchilarga o'rgatish uchun berilayotgan mavzuni yanada puxta egallash imkoniyatini beradi. mavzuga oid grammatik tushunchalar yanada mustahkamlanadi. O'zbek tilining fonetika bo'limiga oid mashqlar tuzishga o'rgatish o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birgalikda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish malakalarini rivojlantiradi. So'zlarni shakl va mano munosabatiga ko'ra turlari; omonim, sinonim va antonimlar yoki yangi lug'at sifatida o'rgatilayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nolariga oid mashqlar tuzishga o'rgatish, o'quvchilar lug'at boyligini oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatish orqali ularning imloviy savodxonligi oshiriladi, chiroyli yozuv malakalari mustahkamlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mavzuga oid mashqlar tuzishga o'rgatishda dastlab mavzuga oid savollar tuzishga orgatish lozim bo'ladi. Savol tuzish uchun ham, albatta, mavzuni puxta egallagan o'quvchilar bo'lishi kerak. Mavzuni puxta egallamagan o'quvchilar mavzuga oid savollar tuza olmaydilar, savollar tuzishga qiynaladilar. Mavzuni puxta egallagan o'quvchilar esa mavzuga oid savollarni qiyinchiliklarsiz tuza oladilar. Biz tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan sinfimizda doskaga chiqib javob bergan har bir o'quvchini baholashdan oldin o'quvchilardan ushbu doskada mashq bajargan o'quvchiga savollar berishlarini talab qildik. Dastlab ikki-uch o'quvchi puxta egallagan mavzulari bo'yicha savollar berdilar, so'ngra tajriba-sinov ishlarimiz yakunida sinf o'quvchilarining deyarli 80 foizi bugungi o'tilgan mavzu yuzasidan yoki avval o'tilgan mavzular bo'yicha savollar bera oladigan bo'lishdi.

Biz malakaviy ishimiz ustida ishlash jarayonida tajriba o'tkazayotgan sinf o'quvchilarini mavzuga bog'lab quyidagi ishlarni bajarishga o'rgatdik:

1.Mavzuga bog'lab savollar tuzish;

2. Mavzuga bog'lab kartochkalar tuzish ;

3.Mavzuga bog'lab test savollar tuzish;

4. Mavzuga bog'lab mashqlar tuzish;

Mavzuga bog'lab savollar tuzishda o'quvchilar qiyinchiliklarga duch kelishmadi. Buning uchun o'quvchilardan mavzuni puxta egallash talab qilindi. Masalan o'quvchilar shaxs va narsa nomlarini bildirgan so'zlar mavzusini o'rganganlaridan so'ng quyidagicha savollar tuzadilar:

1. Bu kim?

2. U nima?

3. Kim o'qiydi?

4. Kim mashina haydaydi?

5. Kim ovqat pishiradi?

6. Kasal odamni kim davolaydi?

7. Doskaga nima bilan yoziladi?

8. Daftarga nima bilan yoziladi?

9. O'quvchilarga kim bilim beradi?

10.Bog'da kim ko'chat ekmoqda?

11.Birinchi bo'lib bahorda qaysi daraxt gullaydi?

12. Tog'da qanday gul o'sadi? va hokazo.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzuga bog'lab kartochkalar tayyorlash mavzuga bog'lab savollar tuzishga qaraganda biroz murakkab jarayon hisoblanadi. Dastlab o'quvchilarga qog'ozdan kartochkalar qirqib, tayyorlab olish jarayonlari tushuntirib beriladi. Masalan;

Biz bunday kartochkalardan bir nechtasini qirqib, tayyorlab olganimizdan so'ng, unga topshiriq tartib raqamlari yozishga o'rgatamiz;

1-topshiriq

2-topshiriq

3-topshiriq

Kartochkalarga topshiriq tartib raqamlarini va chekka qismiga ramka chizib olganimizdan so'ng unga topsiriq shartini yozishni o'rgatamiz;

1-topshiriq

Ushbu gapda qaysi so'zlar shaxs nomini bildiradi?

2-topshiriq

Ushbu gapda qaysi so'zlar narsa nomini bildiradi?

Kartochkalarga topshiriq shartini yozishni o'rgatganimizdan so'ng unga mavzuga bog'lab, yani shaxs va narsa nomini bildirgan so'zlar ishtirokida gaplar yozishni o'rgatamiz;

1-topshiriq

Ushbu gapda qaysi so'zlar shaxs nomini bildiradi?

O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq berdi.

2-topshiriq

Ushbu gapda qaysi so'zlar narsa nomini bildiradi?

Men daftar, qalam va ruchka sotib oldim.

Bunday ko'rinishdagi mavzuga bog'lab kartochkalar tayyorlash mavzuni o'zlashtirishda, grammatik tushunchalarni shakllantirishda va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga bog'lab test-savollari tuzish ham o'quvchilarni yangi o'zlashtirilgan grammatik tushunchalarni mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Mavzuga bog'lab test savollari tuzish uchun mavzu puxta o'zlashtirilishi lozim. Mavzuni puxta egallamagan o'quvchi mavzuga bog'lab test savollari tuza olmaydi. Aksicha mavzuni puxta egallagan o'quvchilargina mavzuga bog'lab test savollari tuza oladilar.

Biz tajriba o'tkazayotgan sinfimizda o'quvchilarga mavzuga bog'lab test savollari tuzishni o'rgatdik. Avval test nima? U qanday ko'rinishda bo'ladi, uni qanday tuziladi va qanday yechiladi kabi masalalarni o'quvchilarga tushuntirdik. Test namunalarini ko'rsatdik va ularni qaysi javoblari to'g'ri ekanini qoidalar bilan tushuntirildi. Test haqida tushuntirish ishlari yakuniga yetgach, doskada test namunasi tuzildi. Masalan;

Qaysi qatorda poliz ekinlari berilgan?

- A] olma, uzum, nok
- B] qoshiq, cho'mich, paqir
- S] qovun, tarvuz, sholg'om

O'quvchilar ushbu testni yechishdan oldin poliz ekinlari deganda nimani tushunishlarini, poliz ekinlariga nimalar kirishi kerakligini bilib olishlari kerak. Ushbu savollarga javob beradigan o'quvchilar narsa nomlari degan mavzuni yaxshi o'zlashtirgan hisoblanadilar. Bunday o'quvchilar yuqoridagi testda s javobi to'g'ri ekanligini darrov topib oladilar.

Bunday turdagi sodda testlarni o'quvchilar tez va qisqa vaqt ichida topib olishni uddasidan chiqishsa, testni murakkabroq shaklda tuziladi.

Masalan; yuqoridagi testni murakkabroq varianti;

Qaysi qatorda faqat poliz ekinlari berilgan?

- A) qovun, bodring, behi
- B) piyoz, sabzi, kartoshka

S) pomidor, o'rik, oshqovoq

Bunday testlarni to'g'ri javobi b javobda berilganligini topgan o'quvchi mavzuni yaxshi o'zlashtirgan hisoblanadi.

Mavzuni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar test savollariga javob topa olishsa, bilimlarini puxta egallagan o'quvchilar test savollari tuza oladilar. Demak, mavzuga bog'lab test savollari tuzishga o'rgatish o'quvchilarni puxta bilim olishlariga katta yordam beradi.

Malakaviy ishimizni yozish jarayonimizda tajriba o'tkazayotgan sinfimizda o'quvchilarga avval test yechishni, so'ng test savollari tuzishni o'rgatdik. Yigirma kundan ortiq har bir ona tili darsida mavzuga bog'lab test savollari tuzish ishlarini olib bordik. Dars jarayonlarida tuzilgan test savollari bilan o'quvchilarni bir-birini sinab ko'rish orqali tahlil qilindi. O'quvchilar o'rtoqlari tomonidan tuzilgan testlarni xato va kamchiliklarini topa oldilar. Ma'lum bo'ldiki, ayrim testlarda to'g'ri javoblar umuman berilmagan, ayrimlarida esa test javobi bitta qatorda emas, balki ikkita qatorda ham berilgani. Testni yechish, tahlil qilish jarayonida bunday kamchiliklarga barham berildi. Test javoblarini yozishda avval biron bir qatorga to'g'ri javob qo'yish kerak degan xulosaga keldik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzuga bog'lab qo'shimcha mashqlar tuzishda o'rgatishga darslikda berilgan mashqlarga tayandik. Darslikda berilgan mavzuga oid mashqlarni bajarishimizda, mashq shartlariga o'quvchilar diqqat – e'tiborini qaratdik. O'tilgan mavzuga oid mashqlarni bajarib ko'rdik. O'quvchilardan ushbu darslikdagi mashqqa o'xshash mashq tuzishni so'radik.

190- mashq

| | | | | |
|---|---|----|---|---|
| | O | S | I | M |
| | A | Z | I | Z |
| U | Y | G' | U | N |
| S | A | I | D | |

O'ylang, yangi ism hosil qilish uchun qaysi harflarni qo'shish kerak. Hosil bo'lgan ismlarni yozing, oralariga vergul qo'ying, tekshiring .

Ushbu rebus shaklidagi mavzuga oid qo'shimcha mashq o'quvchilar tomonidan tez va qisqa vaqt ichida bajarildi. So'ng o'quvchilarga aynan shunday mashqqa o'xshash mashq tuzishlarini, rebusni tuzishda narsa nomlaridan foydalanishlarini topshiriq qilib berdik.

| | | | | |
|--|---|----|---|---|
| | U | Z | O | Q |
| | U | L | O | Q |
| | O | Z | I | Q |
| | O | SH | I | Q |

O'quvchilar berilgan vaqt ichida yuqoridagi ko'rsatilgan rebus shaklidagi narsa-buyum nomini bildiruvchi so'zlar mavzusiga bog'lab, nima so'rog'iga javob beruvchi so'zlar yozishlari lozimligi tushuntirildi.

Uyda o'quvchilarga test tuzib kelish topshirig'i berib borildi. Har kuni o'quvchi uyda tuzib kelgan test va rebuslarini bizga topshirdi. Eng namunali test savollari tuza olgan o'quvchilarni rag'batlantirib bordik. Xato va kamchiligi mavjud testlarni a'lochi o'quvchilarga berib, xato va kamchiliklarini aniqlab berishni so'rab bordik. Ularning bu boradagi fikr-mulohazalarini dars jarayonlarida muhokama qilib bordik.

Biz bitiruv malakaviy ishimiz ustida ishlash jarayonida mavzuga bog'lab qo'shimcha mashq tuzishga va bajarishga o'rgatishga ko'proq e'tibor qaratdik. Chunki boshlang'ich sinf ona tili darsligida mavzuga oid juda ko'p mashqlar berilgan bo'lib, ushbu mashqlarni bajarish orqali o'quvchilarning grammatik tushunchalari rivojlantiriladi. Darslikda mashq bajarishga ko'p e'tibor berilgan. Ushbu mashqlarga o'xshash mavzuga oid mashqlar tuzishga o'quvchilarni o'rgatish ularni puxta bilim olishlariga yordam berish mumkin, degan fikrga keldik.

2.2. 2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarida bajariladigan qo'shimcha mashqlar

2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarida bajariladigan mashqlarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Matn ustida ishlashga oid mashqlar:

O'quv yili davomida, 1-chorakda 25 soatga rejalashtirilgan mashqlarning 72 tasidan 28 tasi matn ustida ishlash mavzusiga bag'ishlangan .

2. Orfografik ko'nikmalarga oid mashqlar:

So'zlar tarkibidagi harflarni to'g'ri yozish, orfografik ko'nikma va bilimlarini mustahkamlash uchun 23 ta mashq berilgan.

3. Bo'g'in, bo'g'in ko'chirishga oid mashqlar:

So'zlarni to'g'ri bo'g'inlarga ajratish, har bir bo'g'inga tegishli bo'lgan harflarni to'g'ri belgilash va nihoyat satrga sig'may qolgan so'z bo'g'inlarini to'g'ri ko'chirishga oid 6 ta mashq berilgan.

4. Tutuq belgisini to'g'ri qo'llashga oid mashqlar:

Tutuq belgisini to'g'ri qo'yish, tutuq belgisi qatnashgan so'zni to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri yozishga oid 6 ta mashq berilgan.

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosini mukammal o'rganish, olgan bilimlarini mustahkamlash va o'quvchilarning yozuv malakalarini rivojlantirish uchun to'qqizta mashq berilgan.

Berilgan mavzuni mustahkamlash uchun matn ustida ishlash:

Boshlang'ich sinf o'quvchlari uchun 2- sinf ona tili darsligida yigirma sakkizta mashq matni ustida ishlashga bag'ishlangan. Matnlar ustida ishlash uchun:

1. 4 ta maqol;
2. 4 ta topishmoq;
3. 5 ta she'r;
4. 11 ta berilgan matndagi gaplarni tahlil qilish;

5. 3 ta rasmga qarab gap tuzush;

6. 1 ta diktant yozish uchun matn berilgan;

Ma'lumki maqollar insonni komillik sari yetaklaydi. Masalan, 4-mashqda berilgan Ona yurtning – oltin beshiging. Ona yerning tuprog'i-ona sutidek aziz, maqollari berilgan.¹ Ushbu maqollar o'quvchilarni Ona yurtga, Vatanga bo'lgan muhabbatlarini rivojlantiradi. O'qituvchi maqollar mazmunini o'quvchilarga tushuntirib berishi ona yurt – oltin beshikday qadrli ekanligi, ona yerning tuprog'i-ona sutiday aziz ekanligini misollar orqali tushuntirib berishi kerak. Maqol mazmunini tushunmasdan o'qish, yodlash o'quvchilarning ona yurtga, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatlarini rivojlantirmaydi.

Darslikda berilgan maqollar insonni tarbiyalash bilan birga, o'quvchilarni ifodali o'qishga, lug'at boyligini oshirishga, og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga, chiroyli yozuv malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Matn shartida nima uchun shunday deymiz, yani ona yurtning - oltin beshiging deb nima uchun aytamiz, o'ylab ko'ring, ko'chiring. Yozganlaringizni bo'g'inlab o'qing. Tekshiring, deyilgan.

Demak o'quvchilar maqollarni nima uchun shunday deyilishini o'ylab ko'radilar, o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. O'qituvchi esa ularning fikrlarini to'ldiradi. Shundan so'ng maqollarni daftarlariga ko'chiradilar. Yozganlarini bo'g'inlab o'qiydilar va kitobdan daftarga to'g'ri ko'chirib, yozganlarini tekshirib ko'radilar. Ko'rinib turibdiki, maqollar o'quvchilarni ifodali o'qishga, chiroyli ko'chirib yozishga, to'g'ri va bexato yozishga katta yordam bermoqda.

Darslikning 18-sahafasida berilgan 43- mashqda quyidagi maqollar berilgan;

43-mashq²

O'qing. Maqollarning mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

Tili shirinning do'sti ko'p. Tinch elning bog'i gullaydi. Yurti tinchning eli tinch.

1. Qosimova K. v.b. "Ona tili" 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2005-yil. 4- bet

2. Qosimova K. v.b. "Ona tili" 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2005-yil. 43-bet

Tinchlik bilan el ko'karadi.

Maqollarni ko'chiring. Tekshiring.

Berilgan maqollarni bittasi o'quvchilarni shirinsuhanlikka, do'stlikni qadrlashga, qolgan uchta maqol mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin maqollardir. Ular o'quvchilarni tinchlikning mazmun-mohiyatini anglashga, tinchlikni sevishga, qadrlashga, asrashga va tinchliksevarlik ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi. Shu bilan birga chiroyli ko'chirib yozishga, chiroyli yozuv malakalarini oshirishga, to'g'ri va behato yozishga, ifodali o'qishga va lug'at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ayniqsa, 2-sinf o'quvchilariga 4-mashqdagi "oltin beshik", 43- mashqdagi "tili shirin", "tinch elning", "bog'i va el ko'karadi" iboralari tushunarsiz iboralar sanaladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga ushbu iboralar mazmunini to'g'ri, sodda, ravon tilda tushuntirib borishi lozim. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirgan bo'lamiz.

2-sinf ona tili darsligida 4 ta topishmoq berilgan bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlash doirasini kengaytirishga, tez va to'g'ri javob topishga, xotirani o'stirishga xizmat qiladi. Masalan, darslikning 5-sahifasidagi 8-mashqni olaylik;

8-mashq. o'qing, topishmoqning javobini toping.¹

Yer tagida oltin qoziq,

U hammaga berar oziq.

Ushbu topishmoqning javobi sabzi ekanligi, u oltin rangda bo'lishi, ovqatga solib pishirsa, hammaga oziq bo'lishi o'quvchilar tomonidan aytiladi.

Topishmoqni she'riy shaklda berilishi o'quvchilarning ifodali o'qish qobiliyatlarini yanada oshiradi. "Oltin qoziq" iborasi qanday oziq-ovqat mahsuloti oltin rangda bo'lishi haqida fikrlashga majbur qiladi. Topishmoqni javobi bilan daftarga yozish esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuv

1. Qosimova K. v.b. "Ona tili" 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2005-yil.5-bet

malakalarini oshiradi. Topishmoqdagi ‘oltin qoziq’,”bo’lar oziq” iboralarining mazmuni bilan o’quvchilarga tushuncha berish ularning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga lug’at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

6-sahifadagi 14-mashqda O’qing, topishmoqning javobini toping.¹

Qanoti bor, qoni yo’q,

Tuxum qo’yar soni yo’q.

Topishmoqning javobini yozing.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari qanday qanotli jonivorlarning qoni yo’qligi, juda ko’p tuxum qo’yishi mumkinligi haqida fikrlaydilar. Topishmoqning javobini topishda darslikda berilgan rebus yordam berishi mumkin.

| | | | | | | |
|---|--|--|--|--|--|---|
| K | | | | | | k |
|---|--|--|--|--|--|---|

K harfi bilan boshlanib, k harfi bilan tugaydigan, yettita harfdan iborat jonivorni kapalak ekanligini tez topib olishlari mumkin.

Topishmoqni javobi qiyin bo’lsa, o’quvchilar topishmoqning javobini topishga qiynalishsalar javobni aytib berishdan ko’ra yuqoridagidek rebuslardan foydalanish samarali natijalar berish mumkin.

Topishmoqni o’qish o’quvchilarning ichidagi o’qish qobiliyatlarini rivojlantirsa, daftarga ko’chirib yozish chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishga, to’g’ri va bexato yozishga undash uchun xizmat qiladi.

O’quvchilar ushbu topishmoqni o’rganish orqali kapalakning qoni bo’lmasligini va behisob tuxum qo’yishligi haqida ma’lumotga ega bo’ladilar. Bu bilan ularning dunyoqarashlari o’sadi, jonivorlar hayot tarzi haqida qiziqarli ma’lumotga ega bo’ladilar.

2-sinf ona tili darsligida beshta she’r berilgan bo’lib, ular, asosan, boshlang’ich sinf o’quvchilarni ifodali o’qish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zafar Diyorning “O’zbekiston”, Muhammadjon Qodirovning “Fonar”,

1. Qosimova K. v.b. “Ona tili” 2-sinf uchun darslik. “Cho’lpon” Toshkent, 2005-yil. 6- bet

Qambar O'tayevning "Ruchka", Safar Barnoyevning "Sog'lom avlod qo'shig'i" va Zafar Diyorning "Bog'ga kirdim" she'rlari berilgan.

11-sahifadagi 27- mashqda Safar Barnoyevning "Sog'lom avlod qo'shig'i"ni mashq shartida birinchi va ikkinchi qatorni ko'chirib, unli harflar tagiga chizing. Ajratib ko'rsatilgan so'roq ishtirokida ikkita gap tuzing, deyilgan.

27-mashq, o'qing.¹

Sog'lom avlod qo'shig'i

Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,

O'zbekiston boy bo'lsing .

Menga atlas, ukamga

Gijinglagan toy bolsin.

Dadam yuzga kirsinlar,

Ayam yuzga kirsinlar,

Bizlar yuzga kirganda,

Yonimizda yursunlar.

O'saversin boyimiz ,

Tinchlik orzy-uyimiz .

Bu dunyoda bor bo'lsin,

O'zbekiston – uyimiz .

Safar Barnoev

Ushbu she'r boshlang'ich sinf o'quvchilarini ifodali o'qish qobiliyatlarini o'shirish bilan birga ona yurtga, Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirishga, otanaga bo'lgan mehr-muhabbatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning unli harflarini ostiga chizish o'quvchilarning unli harflar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga, ko'chirib yozish orqali chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishga erishamiz.

1 Qosimova K. v.b. "Ona tili" 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2005-yil. 11- bet

2-sinf ona tili darsligida berilgan o'n bitta matn, uchta rasmga qarab hikoya tuzish o'quvchilarning ifodali o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga gap va so'zlarni tahlil qilish, rasmga qarab hikoya tuzish orqali fikrlashga, gap tuzishga, tuzulgan gaplarni bir-biriga bog'lab matn tuzishga, fikrlash qobiliyatlarini oshirishga katta yordam beradi.

11-sahifadagi 28-mashqda¹ berilgan "Bog'chada" deb nomlangan matnni diktant yozishga mo'ljallab berilishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarini tekshirish, xato hamda kamchiliklarini aniqlash, o'quvchilarning qaysi qobiliyatlarini yanada rivojlantirish zarurligi to'g'risida xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini orfografik ko'nikmalarga oid mashqlar bajartirish ham dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarini oshirishga katta yordam beradi.

1-sinf ona tili darsligida 23 ta mashq boshlang'ich sinf o'quvchilarining orfografik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida berilgan. Bunday mashqlar shartida o'quvchilarni:

- berilgan so'zlar qaysi harflar bilan bir-biridan farqlanadi.
- berilgan so'zlarga bitta o'zgarish bilan farqlanadigan so'zlarni tanlang;
- so'zlar qaysi harflari bilan farqlanadi?
- faqat bir unli harf bo'g'in hosil qilgan so'zlarni yozing.
- so'zlarni bo'g'inlab o'qing;
- tushurib qoldirilgan a va o harflarini qo'yib, so'zlarni o'qing;
- tushurib qolodirilgan unli harflarni qo'yib, so'zlarni ko'chiring;
- tushurib qoldirilgan u harfini qo'yib, ko'chiring;
- u unlisi so'z va bo'g'in boshida uzunroq, undoshdan so'ng qisqa ayting;

Ko'rinib turibdiki, mashqlar sharti boshlang'ich sinf o'quvchilarini unli va undosh tovushlarni o'qish, yozish, bo'ginlab o'qish, tushurib qoldirilgan harflarni ilg'ab olish, ularni bir-biridan farqlash kabi oldin olgan bilimlarini takrorlash va.

1. Qosimova K. v.b. "Ona tili" 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" Toshkent, 2005-yil. 11- bet

mustahkamlashga qaratilgan

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bo'g'in, bo'g'in ko'chirishga oid qo'shimcha mashqlar bajartirish ham dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarini oshirishga katta yordam beradi.

2-sinf onatili darsligida bo'g'in, bo'g'in ko'chirishga oid 6 ta mashq berilgan. Mashqlar shartidan quyidagi amallarni bajarish vazifa qilib berilgan:

- har bir so'z necha unli va undosh harfdan tashkil topgan;
- faqt bir unli harflar bo'g'in hosil qilgan so'zlarni aniqlang;
- so'zlarni bo'g'inlab o'qing;
- bittadan bo'g'in qo'shib so'z tuzing;
- u unlisini bo'g'in boshida qisqa talaffuz qiling;
- so'zlarni bo'ginlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing;

Ko'rinib turibdiki, berilgan mashqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini bo'g'in haqida darsda olgan bilim va ko'nikmalarini takrorlash, mustahkamlash maqsadida berilgan bo'lib, ularni har bir bo'g'inga tegishli bo'lgan harflarni to'g'ri aniqlash, bo'ginlarni ajrata olish va bo'g'in ko'chirish kabi fonetik, morfologik hamda orfografik bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tutuq belgisini to'g'ri qo'llashga oid qo'shimcha mashqlar bajartirish ham dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarini oshirishga katta yordam beradi.

2-sinf ona tili darsligida tutuq belgisini so'zlarni yozishda to'g'ri qo'llashga oid 6 ta mashq berilgan. Mashqlar shartida quyidagi topshiriqlar bajarish berilgan:

- tutuq belgisidan oldin kelgan undoshni keyin kelgan unli bilan ajratib ayting;
- tutuq belgisini olgan bo'g'inning tagiga chizing;
- tutuq belgisidan oldin kelgan unlini tagiga chizing, unlini cho'ziqroq aytib, so'zlarni o'qing;
- tutuq belgisi qo'yilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozing;

- tutuq belgisi bilan yoziladigan so'zlarni bo'g'inlarga ajrating.

Berilgan mashq shartlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini tutuq belgisi yuzasidan darsda olgan bilimlarini takrorlash va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Tutuq belgisini to'g'ri qo'llash, tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va bo'g'inga ajratishda orfografik qoidalarga amal qilishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosini o'rganishga oid mashqlar ham dars davomida olgan bilim va ko'nikmalarini oshirishga katta yordam beradi.

2-sinf ona tili darsligida tutuq belgisi yuzasidan darsda olingan bilimlarini takrorlash va mustahkamlashga oid 6 ta mashq berilgan. Berilgan mashqlarda quyidagi topshiriqlarni bajarish vazifa qilib berilgan:

- harflarni nomini o'qing ;
- so'zlarni alifbo tartibida yozing;
- sinfdoshlaringizdan beshtasini ismini alifbo tartibida yozing ;
- mevalar nomini alifbo tartibida yozing.

Yuqorida berilgan mashqlar tartibida boshlang'ich sinf o'quvchilarini alifboni yod olishga, so'zlarni alifbo tartibida yozish orqali lug'at bilan ishlashga o'rgatish, umuman, yangi o'zbek alifbosi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilganligi katta ahamiyat kasb etadi.

2-sinfda ona tilidan bo'yicha o'tkaziladigan takrorlash darslari, asosan, birinchi sinfda boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, boshqa yuqori sinflarga qaraganda bir muncha farq qiladi. Masalan, 2-sinf boshida 25 soatga mo'ljallangan 72 ta mashq berilishi, birinchi sinfda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun bir muncha ko'proq mashqlar berilganligini bildiradi. Bu, albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zbek tili grammatikasini chuqurroq o'rganishga, takrorlash orqali 1-sinfda o'tilgan mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Har bir chorak oxirida, chorak davomida olgan bilimlarini mustahkamlash uchun bir soat miqdorida takrorlash darslari rejalashtirilgan.

2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarni qanday tashkil etish mumkin. Takrorlash darslarida qanday yangi usullardan foydalanib, o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar bajartirish mumkin.

Biz bitiruv malakaviy ishimizni o'quv yilining 2-3 choragida yozayotganligimiz sababli, o'quv yili boshida o'tkaziladigan takrorlash darslarini qanday tarzda o'tkazilayotganini kuzatmagan bo'lsak-da, bu vaqtda tajriba-sinov mashqlarini o'tkaza olmadik. Biroq 2-3- choraklar so'ngida o'tkaziladigan takrorlash darslarini kuzatdik va tajriba o'tkazayotgan sinf o'quvchilarini sinovdan o'tkazdik.

2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarini quyidagicha usullardan foydalanib tashkil etishga harkat qildik;

1. Takrorlash darslarida noan'anaviy metodlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
2. Takrorlash darslarida qiziqarli o'yinlardan foydalanish;
3. Takrorlash darslarida ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanish;

2-sinfda takrorlash darslarini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Yangi pedagogik texnologiya darsni eski an'anaga aylangan usullardan voz kechishni, yangi noan'anaviy usullardan keng foydalanishni talab qiladi. O'quvchilarni erkin fikrlashga, erkin harakat qilishga (an'anaviy dars usullariga ko'ra o'quvchilar dars jarayonlarida erkin harakat qila olmaganlar) mustaqil ishlashga o'rgatish hozirgi kun ta'limida muhim o'rin tutmoqda.

Noan'anaviy dars usuli eski an'anaga aylanib qolgan usuldan voz kechish, darsni yangicha tashkil etish, ko'proq o'qtuvchi emas, o'quvchilar faol ishtirok etishi demakdir.

Dars jarayonlarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish, mavzuni o'zlashtirish, xotirada saqlab qolish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Tarqatma kartochkalar, tarqatma test materiallari o'quvchilarni (individual) yakka tartibda mustaqil ishlashga, mustqil javob berishga yoki kartochkadagi savolga jamoaviy tarzda javob berishga, jamoa fikrlarini umumlashtirishga katta yordam beradi.

Shuning uchun biz sinov-tajriba darslarimizni noan'anaviy dars usullaridan foydalanib tashkil qildik. Imkon qadar dars davomida ko'rgazmali qurollardan, tarqatma materiallardan foydalandik hamda deyarli barcha takrorlash darslarida qiziqarli o'yinlardan samarali foydalandik.

Yosh bolalar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin o'ynashga qiziqardilar. Biz ularning bu xususiyatlaridan dars davomida unumli foydalanishga harakat qildik.

3-sinfda ona tili darsi Mavzu: Takrorlash. 335-337 - mashqlar. ¹

Darsning maqsadi:

- a) DTS talablari asosida olingan bilim va malakalarni mustahkamlash;
- b) tez va chiroyli, xatosiz yozish malakalarini shakllantirish;
- s) bolalar ongiga milliy istiqloq g'oyalarini singdirilish, kasb-hunarga bo'lgan muhabbatlarini oshirish.

Dars turi: Mustahkamlash.

Dars usuli: Sayohat, musobaqa, aqliy hujum, zanjir

Dars jihozi: Darslik, darsga oid ko'rgazmalar, tarqatmalar, televizor, video, magnitafon, kompyuter.

Darsning borishi:

I Tashkiliy qism:

- a) darsga tayyorgarlik

1.Fuzailov S. v.b. Ona tili . 3- sinf uchun "O'qituvchi". Toshkent. 2005-yil 130-bet

- b) sinfni guruhlarga ajratish va nomlash
- d) darsning oltin qoidalarini ishlab chiqish (faollik, tartib, o'zaro hurmat, o'rnida rag'bat, chiroyli va xatosiz yozish, ustozni tinglash)

Aziz bolalar! Hozir darsimiz ona tili darsi ekan. Ona tili fanidan DTS talablari bo`yicha nimalarni bilishimiz lozim?

Bolalar javob beradilar.

Hozirgi darsimizda sizni egallagan bilimingizni sinab, mustahkamlashimiz lozim.

Shu payt sinfga musiqa sadolari ostida Bahoroy kirib keladi.

Men bahorman yilning boshi,
Fasllarning qalam qoshi.
Yeru- ko'kka gul taqaman,
Ko'ngillarga xush yoqaman.

Salom aziz bolarlar! Meni taniyapsizmi? Men go'zal Bahoroy bo'laman. Yurtingizga kirib kelganimga ancha bo'ldi.

Sizlarni bugun bilimlar qasriga sayohatga taklif qilaman. U yerga to'siqlardan oshib yetib bora olsangiz siz uchun istiqbol eshiklari ochiladi va siz murodingizga yetasiz. Sayohatga marhamat.

Keling Bahoroy, biz ham sizni o'z davramizga taklif qilamiz va sayohat davomida musobaqa uyushtiramiz. Avval musobaqada ishtirok etadigan jmoalarni aniqlab, ularni nomlab olamiz:

| | |
|---------|--------------|
| 1-guruh | “Binafsha” |
| 2-guruh | “Boychechak” |
| 3-guruh | “Lola” |

Guruhlar sayohat davomida tabiat ne'matlaridan bahra oling. Ammo unga zarar yetkazmang! Yo'lda bekor ketmay suhbatlashaylik. “Aqliy hujum” usuli.

- Aqliy hujum bahor kelishi bilan tabiyatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?
- Bolalar zanjir usulida javob beradilar. She'r va qo'shiqlar aytiladi.

- Siz bilan suhbatlashib ketayotsak, oldimizdan ertak qahramoni Qizil qalpoqcha chiqib qoldi. U shunday savol bilan yo'limizni to'sayapti.

Qizil qalpoqha: Aziz bolalar siz tarixi buyuk ajdodlari ulug' yurt farzandlarisiz. Eng buyuk hadisshunos olimlar Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Al-Narobiy avlodlarisiz.

Qanday hadislar bilasiz?

Bolalar hadislardan namunalar aytdilar.

- Olloh Taolo sahiydir, sahiylikni sevadi, yaxshilik qiluvchidir, yaxshilikni xush ko'radi.
- Kim birodarining betobligini so'ragani borsa, u jannat bog'ida bo'ladi.
- Xayrli va savobli ishlarda bir-biribingizdan o'zishga shoshilining.
- Qo'ling bilan ham, tiling bilan ham ozor berma.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Ilm haqidagi hadislarini bilasizmi?

- Hadisni "Zanjir" usulida ayting.
- Ilm – bu sahroda do'st.
- Hayot yo'llarida tayanch.
- Yolg'izlik damlarida yo`ldosh.
- Baxtiyor daqiqalarda rahbar.
- Odamlar orasida zebu – ziynat.
- Dushmanlarga qarshi kurashda quroldir.

Ha, aziz bolajonlar! Hozir darsda bir-biringizga raqibsiz. Kimning bilimi kuchli bo'lsa, o'sha guruh darsda g'olib bo'ladi.

Yo'limizdan Buratino chiqib qoldi. Buratino savollar beryapti. Aqliy hujum.

- So'z nima?
- So'zlarda qanday qismlar bo'ladi?

- Gap nima?
- Gap nimalardan tuziladi?
- Siz qaysi so'z turkumini bilasiz?

Bolalar savollarga javob beradilar. Misollarni xattaxtaga chiqib yozadilar. Bolalarga o'rnida rag'bat berib boriladi.

Askiya san'ati – milliy san'atimiz hisoblanadi. Keling askiyachi yigitlarimizni taklif qilaylik.

Biz bir kulishib ko'ngillarni ko'taraylikchi.

Yigitlarimiz qushlar haqida askiya aytib bir-birlarini shiringina tanqid qilib olishadi. Hayotda qushlarga ozor bermaymiz.

Tanqiddan to'g'ri hulosa chiqaramiz.

Voy bolalar oldimizdan qushlar chiqib qoldi.

Ularning topshiriqlarini bajarsak ular daraxtga qo'nadilar. Bizga yo'l ko'rsatadilar.

1 - qush: 335- mashqni o'qing. Bolalar mashq shartini o'qib berilgan ot, fe'l, sifatlardan gaplar tuzadilar. Mayin shamol esdi. Mevali daraxtlar gulladi. Issiq kunlar boshlandi. Oq, sariq, qizil gullar ochildi. Yoqimli hidlar tarqaldi.

Bolalar tuzgan gaplarini yozadilar. Ega yoki kesim bilan bog'langan ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlaydilar.

Birinchi qushni qanaqa daraxtga qo'ndiramiz. Nimaga?

2-qush 336 -mashq shartini o'qing.

| | | |
|----------------------|--------------|--------------|
| Binafsha guruhiga: | Bino... | Suvoq... |
| Boychechak guruhiga: | Paxta.... | Shaxmat... |
| Lola guruhiga: | Boshqaruv... | Tadbirkor... |

Ushbu so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida kasb-hunar bildirgan so'zlar yasang.

Guruhlar so'zlar yasaydilar.

Xattaxtaga so'zlar yoziladi.

337-mashq. - li, -la qo'shimchalari yordamida otlardan sifatlar va fe'llar hosil qilib yozing.

Orom daqiqasi qilaylikchi... kompyuterda multimedialar qo'yib ko'rsatiladi.

Mavzu yuzasidan bilimlar mustahkamlanadi.

Bilimlar qasriga yetib keldik. Qasr eshigi ochilib, ovoz eshitiladi.

Barakalla bolalar! Siz bilimdon va dono bolalar ekansiz. Siz egallagan bilim o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi, o'g'rilar uni olib keta olmaydi.

Siz uchun istiqbol eshiklari hamisha ochiq bo'lib murodingizga yetasiz.

Keling «Sayohatda musobaqa darsimizda» qaysi guruh g'olib chiqdi? Keling rag'bat ballarini hisoblaymiz, ballar hisoblanadi, faol o'quvchilar ballanadi.

Baxtiyorlar qo'shig'i kuylanib hammamiz ortga qaytamiz.

Doskaning o'ng tepa qismiga uyda bajariladigan vazifa yoziladi va o'ituvchi tomonidan uy vazifasini qanday tarzda bajarish tushuntirib beriladi. Uyga vazifa
138-mashq. 1

Tajriba-sinov ishlari

“Boshlang’ich sinf ona tili darslarida qo’shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” mavzusida ishlashdan oldin Namangan shahridagi 31-sonli orta umumta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’quvchilari: M.Alixanova, D.Sulaymonova va Jakbarov Murodxonlar bilan mavzuga oid fikirlari hamda tajribalari bilan tanishdik. Jakbarov Jamolxon: “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida qo’shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” mavzusi bugungi kunda orta umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilari oldida turgan muhim masalalardan biridir. Chunki Namangan shahrida ta’lim olayotgan boshlang’ich sinf o’quvchilarining ona tili grammatikasi bo’yicha tushuncha va ko’nikmalari yetarli emasligi tufayli ularning oddiy matnlarni yozishdagi yoki ariza, tushuntirish xati, ishonchnoma kabi ish qoqozlarini yozishda, ayniqsa, og’zaki nutq ifodalashda ko’plab xato va kamchiliklarga yo’l qo’ymoqdalar. Oquvchilar nutqida sheva elementlarining mavjudligi, so’zlarni buzib talaffuz qilishlari, nutqda o’rinsiz so’zlarni qo’llash yoki nutqda ruscha so’zlarni noo’rin qo’llash kabi xato va kamchiliklaridan ko’z yumib bo’lmaydi”

Biz malakaviy ishimizni yozish jarayonida boshlang’ich sinif o’quvchilariga mavzuga oid qo’shimcha mashqlar bajarishni o’rgatishga doir usullar haqida batafsil to’xtaldik. Qanday usul va tajribalardan foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin degan masala ustida ilmiy izlanishlar olib bordik. Ishlab chiqqan usullarimizni Namangan shahridagi 31- umumta’lim maktabining 2-F – sinfida tajribadan o’tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur umumta’lim maktabning 2-B – sinfini tanladik. Ma’lum bir muddat o’tgach, har ikkala sinf o’quvchilari bilim saviyasini solishtirib ko’rdik. Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni, xulosalarimizni, “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida qo’shimcha mashqlardan foydalanish uslublari”ning afzal tomonlari, ahamiyati va tajriba davomida erishgan yutuqlarimizni to’la yoritishga harakat qildik. “Boshlang’ich sinf ona tili darslarida qo’shimcha mashqlardan foydalanish uslublari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni umumta’lim maktablarining “Boshlang’ich sinf

o'qituvchilariga "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari" mavzusidagi qo'llanma sifatida foydalanishni taklif etamiz.

Biz tajriba-sinov jaroyonining boshida, o'rtasida va oxirida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarganlaridan so'ng bilim va ko'nikmalarining shakllanishi hamda o'sib borishini og'zaki savol-javob, test va yozma ishlar tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o'tkazib bordik.

Tajriba-sinov o'tkazishdan oldingi har ikkala sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari tajriba-sinov o'rtasiga borib tajriba-sinov o'tkazayotgan 2^F -sinf o'quvchilarida o'sib borayotganini, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, rivojlanib borayotgan qobiliyatlarini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rib, bu borada olib borayotgan ishlarimizni sidqidildan davom ettira boshladik. Tajriba-sinov yakuniga borib, nazoratga olgan 2^B -sinf o'quvchilariga qaraganda tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan 2^F -sinf o'quvchilarida ijobiy o'zgarishlar ro'y berganining guvohi bo'ldik. Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

1. Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
2. Lug'at boyliklari oshirildi;
3. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
4. Ona tili grammatikasiga oid bilim va ko'nikmalari shakllantirildi;
5. Ona tili fanini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganish qobiliyatlari rivojlantirildi;
6. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
7. Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
8. Dunyoqarashlari kengaytirildi;
9. O'z ona tilisiga bo'lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
10. Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
11. Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
12. O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Tajriba – sinov sinfi hamda nazorat sinflari o`quvchilarining faoliyatlarini bir –biriga taqqoslab, tajriba-sinov natijasida erishilgan yutuqlarni quyidagicha shkala va diagrammalarda e`tiborimizga havola qilamiz:

1. O`quvchilar davomati

| Tajriba davri Sinflar | Tajribadan oldin | Tajribadan so`ng |
|--------------------------|------------------|------------------|
| 2 ^F -sinf | 91% | 94% |
| 2 ^B sinf | 90% | 91% |

Ko`rinib turibdiki, tajriba o`tkazayotgan sinfimizda tajriba o`tkazishdan oldin o`quvchilar davomoti 91% ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng davomot 94% ga ko`tarilgan. Nazorat sinfida esa o`quvchilar davomoti 1%ga o`zgargan.


2. O`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`ldi:

Tajribadan oldin:

| O`zlashtirish ko`rsatkichlari | Jami o`quvchi | a`lo | yaxshi | o`rta | qoniqarsiz |
|----------------------------------|------------------|------|--------|-------|------------|
| 2 ^F –sinf | 32 | 6 | 14 | 10 | 2 |
| 2 ^B –sinf | 30 | 5 | 13 | 10 | 2 |

TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

2^F -sinf tajriba sinf
2^B -sinf nazorat sinf




| TAJRIBA SINIF | NAZORAT SINIF |
|-----------------------|-----------------------|
| 5 baho – 6 ta - 17 % | 5 baho – 5 ta - 17 % |
| 4 baho – 14 ta – 39 % | 4 baho – 13 ta - 43 % |
| 3 baho – 10 ta - 28 % | 3 baho – 10 ta - 33 % |
| 2 baho – 2 ta - 6 % | 2 baho – 2 ta - 7 % |

Tajribadan so`ng:

| O`zlashtirish ko`rsatkichlari | Jami o`quvchi | a`lo | yaxshi | o`rta | qoniqarsiz |
|-------------------------------|---------------|------|--------|-------|------------|
| 2 ^F –sinf | 32 | 10 | 13 | 8 | 1 |
| 2 ^B –sinf | 30 | 8 | 12 | 8 | 2 |

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

2^F-sinf tajriba sinf
2^B-sinf nazorat sinf



| TAJRIBA SINF | NAZORAT SINF |
|-----------------------|-----------------------|
| 5 baho – 10 ta - 30 % | 5 baho – 8 ta - 24 % |
| 4 baho – 13 ta - 43 % | 4 baho – 12 ta - 36 % |
| 3 baho – 8 ta - 24 % | 3 baho – 8 ta - 24 % |
| 2 baho – 1 ta - 3 % | 2 baho – 2 ta - 6 % |

Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, o`yin tarzida tashkil etish orqali o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari yuqoridagi shkalda ko`rsatilgan natijalarni qayd etdi.

Tajriba sinfida yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar tajribadan oldin 2 nafarni tashkil etgan bo`lsa, tajribadan so`ng ushbu sinfda yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilarning 1 nafari o`rta bahoga 1 nafari yomon bahoga o`zlashtira boshladilar. Nazorat sinfida esa yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar

2 nafarligicha qoldi. Avval ular 2 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yana 2 nafarni tashkil qildi.

O`rta bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 2^F-sinfda 10 nafar edi. Tajribadan so`ng 2 nafarga kamayib, 8 nafarni tashkil qildi. Ushbu sinfda o`rta va qoniqarsiz bahoga o`qiydigan o`quvchilar 12 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 9 nafarni tashkil qildi. Bu 25% o`quvchilar yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini bildiradi. 2^B -sinfda esa tajribadan oldin 10 nafar o`quvchi o`rta bahoga o`qishgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 8 nafarni tashkil qildi.

Yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar avval 2^F -sinfda 14 nafarni tashkil qilgan edi. Tajribadan so`ng ular 14 nafarni tashkil qildilar. Ushbu sinfda 6 nafar o`quvchi o`rta bahodan yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini etiborga olsak, jami 7 nafar o`quvchi a`lo bahoga o`qiy boshlagan bo`ladilar. O`z-o`zidan ushbu sinfda a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 10 nafardan 15 nafarga oshadi. Nazorat sinfida esa tajribadan oldin yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 8tani tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yaxshi bahoga 10 nafar, a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 7 nafarga oshadi.

XULOSA

“Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin.”¹

Ona tili darslarida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishdan foydalanish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha bilim va ko'nikalarini o'stirish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o'z ona tilisining grammatik qonun-qoidalarini o'rganayotgan, harflarni bir-biriga qo'shib, so'zlarni esa bir-biriga qo'shib gap yasashga o'rganayotgan, matnni ifodali o'qish qoidalari bilan tanishayotgan boshlang'ich sinf o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya berish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e'tiqod, mehnatsevarlik, tinchliksevarlik kabi insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bilan birga ularning ona tilining murakkab grammatikasi yuzasidan tushunchalarini o'stirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo'ldikki, darslarda noan'anaviy metodlarni qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o'yinlaridan, turli xil musobaqalardan yoki qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda, nafaqat, chuqur bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda, balki insoniy fazilatlarini o'stirib borishda samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqarli o'yinlarni o'ynashga bo'lgan qiziqishlaridan unumli foydalanib, dars jarayonlarida, ayniqsa, ona tili

1.Karimov I.A “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 16-bet.

darslarida til;ning grammatik qurulishi bilan tanishtirib borish, mavzuga oid mashqlar bajarishda, qolaversa, uy vazifalarini tekshirishda ko'proq qiziqarli o'yinlardan foydalandik.

Qo'llagan usullarimiz orqali o'quvchilarning ona tili grammatikasiga oid tushunchalarini o'stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo'lmadi.

Ona tili darslarida noan'anaviy usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanganimizda o'quvchilarning, avvalo, darsiga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomongan o'zgardi. O'qish darsiga qiziqmagan o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'ota oldik.

Eng asosiysi, tili xil qobiliyatlari, talant qirralarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirib olishlariga, ona tili darsi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, sharqona odob-axloq normalarini rivojlantirishga erishdik.

Bundan tashqari, ona tili darslarida qiziqarli o'yinlar o'tkazish, sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib ishlash kabi usullardan foydalanganimizda o'quvchilarning mashg'ulot davomida erkin harakat qila olishga, o'zlarida his etayotgan tortinchoqlik, uyatchanlik, biladigan narsasini aytib berishga jur'at eta olmaslik kabi salbiy xarakterlaridan qutulishga, erkin fikrlash, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, fikr-mulohazalarini va xulosalarini erkin bayon eta olish, kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi qobiliyatlarini shakllantirishga va uni rivojlantirishga erishdik.

Ona tili darslarida olib brogan tajriba-sinov ishlarimiz orqali biz quyidagi natijalarga erishdik:

1. Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
2. Lug'at boyliklari oshirildi;
3. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
4. Ona tili fanidan qo'shimcha mashqlar ko'nikmalari
5. Fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
6. Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
7. Dunyoqarashlari kengaytirildi;

8. O'z ona tilisiga bo'lgan mehr-muhabbatlari oshirildi;
9. Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
10. Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
11. O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini noan'anaviy usullardan, didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning jazzi qalblarida milliy iftixor va milliy g'ururni shakllantirish bilan birga kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirish hamda komil inson bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning, nafaqat ona tili darslarida balki boshqa har qanday dars turlari davomida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, noan'anaviy dars usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashish juda ham katta samarali natijalar berishiga ishonch hosil qildik.

TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini, xususan, 2-sin ona tili darslarini turlicha tashkil etish mumkin. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi, bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

2-sinf ona tili darslarida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fanini chuqur bilishi kerak;
2. O'quvchilarning ruhiyati, xarakter-xususiyatlari bilan yaqindan tanishgan bo'lishi lozim;
3. Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishda yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanish lozim;
4. Vaqtni yo'qotmaslik uchun darsni loyihalab olish zarur;
5. Mavzu yuzasidan har xil ko'rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, krassvordlar, rebuslar, skanvordlar, test savollari tayyorlay bilishlari lozim;.

6. Dars jarayonida o'qituvchi asosiy figurani emas, balki o'quvchi asosiy figurani tashkil etishi kerak;

7. O'quvchilarni ko'proq guruhlarda ishlashga yo'naltirish, ularni mazkur mavzular bo'yicha o'z fikrini qo'rqmay, tortinmay, erkin va mustaqil bayon etishga, mushohada yuritishga yo'naltirish lozim;

8, Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish jarayonida boshqa fanlarni shu mavzu bilan integratsiyalab, ya'ni bog'lab olib borish lozim.

Agar o'qituvchilar yuqorida ta'kidlab o'tganlarimiz asosida darslarni tashkil etib borsalar, o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha bilim darjalarining kengayishiga, ularni har bir mavzuga befarq bo'lmasligiga, o'zarining mavzu bo'yicha erkin va mustaqil mushohada yurita olishlariga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi,” Xalq so’zi, Toshkent, 2011-yil, 22-yanvar 16-son, 4 b.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi” “O’zbekiston ovozi”., 2010-yil.,1-sentabr, 105-son.,4 b.
3. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr. 4 b.
4. Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Ma’naviyat”, Toshkent. 2008 -yil. 176 b.
5. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” Toshkent. 1999- yil. 184 b.
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. “O’zbekiston” Toshkent. 1998-yil. 194 b.
7. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. 5-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1997- yil. 166 b.
8. Karimov I.A.“Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 172 b.
9. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. 3-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 164 b.
10. Karimov I.A.“Bunyodkorlik yo’lidan”4-tom “O’zbekiston”Toshkent. 1996- yil.

II Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

1. Boshlang’ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti. Boshlang’ich ta’lim . 2006-yil, 5- son . 48 b.
2. Boshlang’ich ta’limning takomillashtirilgan o’quv dasturi. Boshlang’ich ta’lim . 2006-yil, 5- son. 48 b.
3. O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., 1998
4. O’zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. Toshkent. 1998-yil.

5. Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil. 194 b.
6. Abdullayeva Q. va boshqalar. “O’qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “O’qituvchi” Toshkent. 2008- yil.176 b.
7. Abdullaeva K. va b. Ona tili . ”O’qituvchi”. Toshkent. .1999.-yil.146 b.
8. Umarova M., Hakimova SH “O’qish kitobi” 3-sinf uchun darslik. “Cho’lpon” Toshkent. 2008- yil.240 b.
9. Ushinskiy A“Ona tilini dastlabki o’qitish ” Boshlang’ich ta’lim 2002-yil 5-son
- 10.Ikromova R. v.b. Ona tili . 4- sinf uchun ”O’qituvchi” Toshkent. 2007-yil
- 11.Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali Toshkent. 2000- yil. 212 b.
- 12.Mirzayev M. O’qish kitobi 4-sinf uchun darslik. “Cho’lpon” T.2008-yil.186 b.
- 13.Fuzailov S. v.b. Ona tili. 3- sinf uchun ”O’qituvchi”.Toshkent.2005-yil.144 b.
- 14.Qosimova K. v.b. Ona tili . 2- sinf uchun ”Cho’lpon”. Tosh. 2005.-yil.112 b.
- 15.G’apparova T, v.b. Ona tili . 1-sinf uchun. ”O’qituvchi”. T. 1999-yil.146 b.
- 16.G’ulomova X. v.b. 4- sinfda ona tili darslari. ”O’qituvchi”. T. 2003-yil.192 b

III Internet materiallari:

1. <http://www.google.co.uz/> - “Mashqlar to’plami”
2. <http://www.referat.uz/> - “O’quvchilarni mashq ishlashga o’rgatish”
3. <http://www.ziyonet.uz/> - “Predmetlararo bog’lanishlar”

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| 1. Kirish | 2 |
| 2. I bob Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid mashqlar bajarish orqali yangi bilimni mustahkamlash..... | 8 |
| 3. 1.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga grammatik tushunchalarni o'rgatib borishning maqsad va vazifalari | 8 |
| 4.1.2. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga mavzuga oid og'zaki va yozma mashqlar bajartirib borishning ahamiyati | 22 |
| 5. II-bob Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari | 32 |
| 6. 2.1 Boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'shimcha mashqlardan foydalanish uslublari | 32 |
| 7. 2.2. 2-sinfda ona tilidan takrorlash darslarida bajariladigan qo'shimcha mashqlar..... | 43 |
| 8. Tajriba – sinov ishlari | 57 |
| 9. Xulosa va tavsiyalar | 63 |
| 10. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | 67 |
| 11. Mundarija | 69 |